GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 371.014.07(S5)

QAYUMOV SHOHRUH ABDUJALOL O‘G‘LI

# BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari doktori, professor Raximov B.X.**

**Guliston - 2023**

# M U N D A R I J A

KIRISH.........................…………………………………………………… 3

**I BOB. BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .........13**

1.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida ……13
1.2. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning mavjud holati .....................25
1.3. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ...... 40
I bob yuzasidan xulosalar .........................................................................................49

**II BOB. BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR .....52**

2.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish texnologiyalari …………………..….…..……...52
2.2. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ……......................68
2.3. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetenlikni takomillashtirish modeli …………………………...…………………………82
II bob yuzasidan xulosalar ........................................................................................99

**III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA ASOSIY NATIJALARI TAHLILI .........................................................101**

3.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy KOMPETENTligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish buyisha utkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni………………………………………………………………101
3.2.Pedagogik tajriba-sinov natijalari va uning taxlili…………………………..109
III bob yuzasidan xulosalar.........................................................................121
UMUMIY XULOSALAR ………………………………….........................123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR …………………….........................130
ILOVALAR........................................................................................... ..138

**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va milliy kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko'tarish masalasiga ahamiyat berilmoqda. Ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada «Ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish»[1] ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi zamon talablariga mos pedagogik kadrlar tayyorlashni, xususan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tizimli ishlar olib borishni va bu borada elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borishni taqazo qiladi. Bu esa bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining fanga oid tayyorgarligining psixologik-pedagogik va didaktik muammolarini bartaraf etishda ta'lim jarayoniga kompetent yondashuv va ta'limni axborotlashtirishning kasbiy-pedagogik yo'nalganligini amalda qo'llashda ustuvorlik kasb etadi.

Dunyoda bugungi kunda o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqotlar o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, uni tarkib toptirishning ijtimoiy, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

---

[1] Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.

Mamlakatimizda “Uchinchi Renessans” poydevori qurilayotgan, ta’lim sohasida islohotlar amalaga oshirilayotgan hamda ta’lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Prezidentimiz “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni keshmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinshi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda[2]” deb ta’kidlagan edi. Shu ma’noda umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya daslarini zamon talablari asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish, raqobatbardosh bo‘lajak o’qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirish jamiyat talablarining asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvshilar talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlash, malakaviy amaliyot jarayonini modernizatsiyalash, uni tashkil etish bo‘yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimsha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish

---

[2] Yangi O‘zbekistonni barpo etish - bu ob'ektiv zaruratdir / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.M.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021 yil 17 avgust. №165(421).

konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarni tarbiyalashda belgilangan 5 ta muhim tashabbus yoshlarga e’tiborni kushaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini ta’minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-marifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan rivojlantirish va bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy takomillashtirish masalalari

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining sifat va samaradorligi oshirish, OTMda kasbiy kompetensiyali mutaxassislar va bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlash muammolari I.G.Azimov [17], Y.Y.Aripov [20], A.K.Atayev [22], F.Axmedov [24], B.G.Boyboboyev [33], K.M.Gulyamov [38], R.H.Jurayev [43], X.I.Ibragimov [47], F.A.Kerimov [50], A.X.Meliyev [57], N.A.Muslimov [58], A.T.Nurmanov [60], B.X.Raximov [63], T.Usmonxo’jayev [76], Sh.S.Sharipov [79], J.A.Hamidov [81], O.X.To‘raqulov [74], N.A.Muslimov [58], M.B.Urazova [77] O.Qo’ysinov [91] va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) davlatlarida shaxs kompetentligini rivojlantirish bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy takomillashtirish masalalari olimlaridan V.A.Adolf [16], L.R.Ayroretyans [18], B.A.Ashmarin [23], B.Bayriyev [29], B.A.Bolotova [34], V.I.Dubrovskiy [86], O.A.Kozireva [53], N.V.Kuzmina [54], A.V.Klimenko [51], A.K.Markova [56], A.V.Xutorskiy [86], V.A.Slastenin [68], kabilarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorij olimlaridan D.E.Arnold [93], J.E.Razer [93], D.Srase [95], G.Lusshen [102,111], R.F.Lesgaft [109], H.Lenk [108], V.V.Stolbov [115], L.A.Finogenova [115], B.H.Xon [101], M.Danielslar [99] o‘z tadqiqotlarida fanlarni zamonaviy texnologiyalar orqali o‘qitishda mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish ga oid ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, globallashuv sharoiti talablari asosida xalqaro ta’lim standartlariga mos ravishda aynan jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishlari, talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish mazmunini takomillashtirish masalasi yetarlisha tadqiq etilmagan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining «Umumta’lim maktabi o’qituvchilari uchun multimediali dars ishlanmalar majmuasini yaratish» (2019-2022 yy.) va Jizzax davlat pedagogika universitetining «Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish» (OT-F1-118.) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetentligini rivojlantirish ta’minoti ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichini belgilovchi kognitiv darajali va tafakkurni takomillashtirishga qaratilgan didaktik topshiriqlar asoslari va mazmunini ilmiy tahlil etish hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi innovatsion o‘quv muhitini boshqaruvchi (LMS) va ichki kontent boshqaruv (SMS) tizim texnologiyalarini mutaxasislik fanlarga oid bilimlarni

o‘zlashtirish ko‘nikmalari hamda kreativ fikrlash darajasiga ega kasbiy talablar va kompetensiyalarni aniqlashtirish asosida takomillashtirish;

innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarning shakl va bosqichlarini o‘zaro interpretatsiyalash orqali onlayn torshiriqlar majmuini ishlab chiqish orqali takomillashtirish;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajalari va mezonlari interaktiv mashqlarni samarali o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga dinamik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan muammoli topshiriqlar komponentlarini kiritish asosida aniqlashtirish.

**Tadqiqotning ob’ekti** bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Tadqiqot usullari.** Vazifalarni hal etish uchun tadqiqot mavzusi bo‘yicha falsafiy, psixologik, pedagogik va kasbiy adabiyotlar nazariy tahlili; pedagogik modellashtirish; so‘rovnoma va testlar o‘tkazish; umumlashma, taqqoslash, tizimlashtirish; tashxis va bashorat qilish, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiriruvchi bosqichlaridan iborat pedagogik tajriba-sinov hamda matematik statistika metodlardan foydalanildi:

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetentligini rivojlantirish ta’minoti ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichini belgilovchi kognitiv darajali va tafakkurni takomillashtirishga qaratilgan didaktik, texnologik va kreativ topshiriqlar tizimidan virtual ta’lim muhiti sharoitida foydalanish hamda o‘quv jarayonini innovatsion (analitik, obstrakt, analitik-sintetik) loyihalashtirish bosqishlarini aniqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi innovatsion o‘quv muhitini boshqaruvchi (LMS) va ichki kontent boshqaruv (SMS) tizim texnologiyalari mutaxasislik fanlarga oid bilimlarni

funksional integratsiyalash orqali boyitish hamda mantiqiy va kreativ fikrlash darajasiga ega kasbiy talablar va kompetensiyalarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarning shakl (nazariy, amaliy, innovatsion) va bosqichlarini (tanishtirish, shakllantirish, rivojlantirish) o‘zaro interpretatsiyalash orqali onlayn torshiriqlar majmuini ishlab chiqish va pedagogik jarayonlarga ustivorlik berish orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajalari va mezonlari interaktiv mashqlarni samarali o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga dinamik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan muammoli topshiriqlarni sub’ektiv, loyihaviy, produktiv, refleksiv bosqichlar bo‘yicha strukturalash va kasbiy bilim kompetentligining qadriyatli, motivatsion, kognitiv, amaliy yo‘naltirilganlik kabi komponentlarini kiritish asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni o‘quv-metodik qo‘llama, uslubiy majmua va ma’ruza matnlarida o‘z aksini topgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish darajalari, mezon va ko‘rsatkishlari ishlab chiqilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari uchun innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonga tadbiq etish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma yaratilgan.

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha elektron axborot resurslari yaratilgan.

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo‘llangan yondashuv va foydalanilgan nazariy va amaliy tajibalar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik metodlar

vositasida asoslanganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jismoniy tarbiya fanini oʻqitishda boʻlajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga xizmat qiladigan bilim, axborotlarni taqdim etish vositalari va metodlarni takomillashtirishni oʻqitish sifatiga oid koʻrsatkichlar tizimi asosida tashkil etish, jismoniy tarbiya fanini oʻqitish metodikasi fanining Davlat ta’lim standarti, malaka talablari va oʻquv dasturlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalar hamda innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boʻlajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish boʻyicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash hamda jismoniy tarbiya fani mazmuni oʻqitish sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

boʻlajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy bilim, koʻnikma va kompetentligini rivojlantirish ta’minoti ta’lim jarayonining sifat koʻrsatkichini belgilovchi kognitiv darajali va tafakkurni takomillashtirishga qaratilgan didaktik, texnologik va kreativ topshiriqlar tizimidan virtual ta’lim muhiti sharoitida foydalanish hamda oʻquv jarayonini innovatsion (analitik, obstrakt, analitik-sintetik) loyihalashtirish bosqishlarini aniqlashtirish orqali takomillashtishga oid tavsiyalar YOA-1-22 raqamli “Fanlarni oʻqitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPUning 2022 yil 30 martdagi 02-07-853/04-sonli dalolatnomasi). Natijada boʻlajak jismoniy tarbiya

o’qituvchisining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirilgan hamda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tarixiy, psixologik-pedagogik omillarini tahlil etish imkoniyati oshirilgan.

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi innovatsion o‘quv muhitini boshqaruvchi (LMS) va ichki kontent boshqaruv (SMS) tizim texnologiyalari mutaxasislik fanlarga oid bilimlarni funksional integratsiyalash orqali boyitish hamda mantiqiy va kreativ fikrlash darajasiga ega kasbiy talablar va kompetensiyalarni aniqlashtirish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar MRB-OT-2019-23 raqamli “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanlgan holda pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy metodik ta’minoti” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPUning 2022 yil 30 martdagi 02-07-853/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning didaktik va texnologik omillarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarning shakl (nazariy, amaliy, innovatsion) va bosqichlarini (tanishtirish, shakllantirish, rivojlantirish) o‘zaro interpretatsiyalash orqali onlayn torshiriqlar majmuini ishlab chiqish va pedagogik jarayonlarga ustivorlik berish orqali takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar YOA5-XT-1-31884 raqamli “Innovatsion texnologiyalar sharoitida o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini shakllantirish usullari” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda amalda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPUning 2022 yil 30 martdagi 02-07-853/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlashning o‘quv-kasbiy va metodik ta’minoti innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajalari va mezonlari interaktiv mashqlarni samarali o‘zlashtirish

ko‘rsatkichlariga dinamik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan muammoli topshiriqlarni sub’ektiv, loyihaviy, produktiv, refleksiv bosqichlar bo‘yicha strukturalash va kasbiy bilim kompetentligining qadriyatli, motivatsion, kognitiv, amaliy yo‘naltirilganlik kabi komponentlarini kiritish asosida aniqlashtirish bo‘yicha tavsiyalar YOA-1-22 raqamli “Fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPUning 2022 yil 30 martdagi 02-07-853/04-sonli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetentlikning rivojlanganligini baholash mezonlarini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini shor etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublikada, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 121 betni tashkil etadi**.**

# I BOB. BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik zarurati va pedagogik-psixologik yo‘nalishlari

Har qanday shaxsning o‘zi tanlagan sohasi bo‘yicha yuqori malakali, mahoratga ega mutaxassis sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, unga ko‘p yillik samarali mehnat, ijodiy izlanishlar natijasidagina erishish mumkin. Biroq mazkur sifatlarning shakllanishi uchun zamin oliy o‘quv yurtlaridagi tahsil olish jarayonida yaratiladi. Jumladan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar doirasida nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Xalq xo‘jaligining turli sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aynan mazkur mutaxassisda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta’limning asosiy maqsadi zamon talablariga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma’naviyatga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir. Shu ma’noda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli yetuk mutaxasslarni tayyorlash oliy pedagogik ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifasidan kelib shiqqan holda, biz dissertatsiyaning asosiy tayansh tuchunshalarini quyidagicha izohlashni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

***Kompetensiya*** tuchunshasi lotinsha “c*ompetentia”* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, izohli lug‘atda “qonunan ega”, “haqdor” degan ma’noni anglatadi,

umumiste’molda keng ishlatiladigan “qobiliyat”, “ko‘nikma,” “iqtidor” tuchunshalariga yaqin turadi [76].

***Kompetentli*** atamasi esa muayyan turdagi kompetensiyaga ega, layoqatli, o‘z sohasini biladigan, uni boshqalarga yetkazishni eplaydigan “mahorat sohibi” ma’nolarini beradi [76].

Ta’limining uzviyligi va uzluksizligi, o‘quvchi shaxsi qiziqishlarining ustuvorligidan kelib chiqib, yosh xususiyatlariga mos ravishda tayansh va fanga oid *umumiy kompetensiyalar tizimi* quyidagicha belgilandi:

**Kommunikativ kompetensiya, -** ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvshanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** – media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab torish, qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish, media muloqot layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi** – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kasbiy rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil qaror qabul qila olish, o‘qib-o‘rganish kompetensiyalarini egallashni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** – o‘zi yashayotgan jamiyat muammolariga daxldorlik, fuqarolik bursh va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, ijtimoiy muloqot va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** – vatanga sadoqatli, insonga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tuchunish, opasta kiyinish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi** – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy reja tuza olish, diagramma, chizma va modellarni o‘qish, fanga oid

innovatsion texnologiyalardan foydalanish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarga ona tili fani orqali singdiriladi.

Oliy ta’limida kompetensiyaviy ta’limni tashkil etishda ko‘proq quyidagi ta’lim prinsiplariga tayaniladi: Ilmiylik, sistemalilik, izchillik, ko‘rgazmalilik, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, onglilik, tushunarlilik, nazariya va amaliyot birligi uzviylik prinsirlari.

O‘qitish prinsirlari “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”da ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarishga qodir yangi avlodni, tashabbuskor, raqobatbardosh yosh mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tilni tizimli o‘rganish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, ta’limni intensivlashtirish orqali ularda kompetentlilik darajasini orttirish lozim.

**Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi** – kelajakda umumiy o‘rta ta’lim, akademik, professional va kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiladigan pedagog mutaxassis.

**Kasbiy kompetentlik** - kishining kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vazifalarni bajara olish qobiliyati va undan samarali foydalana olish imkoniyati bo‘lib, u shaxsga xos ko‘rlab psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. A.A.Derkach tomonidan kasbiy kompetentlikning tarkibida kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘z shaxsini namoyon eta olishidagi kompetentligini kiritish mumkin [36].

Pedagogning kasbiy kompetentligi undan pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo‘lishni, o‘z ustida ishlashni, ta’lim jarayonini rejalashtirishni, baholash va qayta aloqani o‘rnata olishni, o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirishni, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilishni, ta’lim muhitiga yangilik kiritishni, o‘z fanini mukammal bilishni va xorijiy tillardan birini yaxshi bilishni taqazo etadi.

A.V. Xutorskiy ta’lim jarayoni uchun muhim bo‘lgan pedagogning quyidagi Kompetentligini tavsiflaydi:

1.Dunyoqarash, qadriyat va o‘zini anglash- o’qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalar mohiyatini aniqlay biladi va tuchunadi unga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay olish hamda muammoning yeshimini tora bilish ko‘nikmasiga ega. Bu kompetensiya - o’qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘zini – o‘zi anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va O‘quvchi yoshlarga tuchuntira olishi.

3. O‘quv va bilish jarayoni- o’qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish - pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotshanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat- oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi- jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi, hissiyotini boshqarish.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan ushbu faoliyat sub’ekti hisoblangan o’qituvchining kasbiy mahorati va tajribasiga bog‘liqdir.

Pedagoglik kasbiga loyiqlik kasb uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u kommunikativ qobiliyatlarda ham o‘z aksini toradi. Shaxslararo muloqot, o‘zaro psixologik ta’sir etish bilan bog‘liq vazifalarni bajarish uchun har bir pedagogda soha uchun eng muhim xususiyat hisoblangan muloqotshanlik yoki kommunikativ Kompetentlikni shakllantirish kerak. [71].

Bo‘lajak o‘qituvchilar bilan pedagogik muloqotni samarali tashkil etish o’qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagog shaxsi va uning shu faoliyatga munosabati va motivasiyasi bilan belgilanadi. Pedagog shaxsi uning qadryatli yo‘nalishlari, hayotiy reja va orzu-istaklarini aks ettirib – pedagogik faoliyat mazmunini ifodalaydi. L.S.Vigotskiy ta’kidlab o‘tganidek, “Ta’lim jarayonidagi o’qituvchi shaxsi birinshi o‘rinda turadi, pedagogning boshqa xislatlari ta’lim natijalariga bo‘lgan tarbiyaviy ta’sirni oshiradi yoki rasaytiradi…”. [32].

Kommunikativ kompetentlik ishga oid, hamkasb yoki do‘stlar bilan, rahbarlarga murojaat qilish bilan bog‘liq, o‘zaro ishonshga asoslangan munosabatlarni tashkil etishning shakllari, usullari va uning samaradorligiga ta’sir etuvshi omillar turlari haqidagi bilimlar tizimi, muloqot jarayonidagi sherikka psixologik ta’sir eta olish texnikasiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Pedagog kommunikativ kompetentligi yordamida o‘quvchi va talabalarning har qanday salbiy hissiy holatlari yoki ekstremal vaziyatlarda ham ularning ruhiy holatini to‘g‘ri idrok qilish, tushunish, mavjud axborotlarni to‘g‘ri tahlil qila olishi zarur.

Talabalar bilan pedagogik muloqot qilish, ya’ni kommunikativ kompetentlik pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismidir. O’qituvchining kommunikativ qobiliyatlari uning shaxsiy sifatlarida ham aks etadi. Pedagogning kommunikativ kompetentligi va talabalarning kommunikativ imkoniyatlari ular o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning to‘laqonli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Muloqot ta’limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ham manba, ham axborot tarmog‘i vazifasini o‘taydi. Shuning uchun u ta’lim jarayonida etakchi o‘rinni egallaydi.

Pedagogik faoliyatdagi samarali muloqotning asosiy sirlaridan biri, suhbatdoshni “to‘g‘ri” tinglay olish mahorati sanaladi. “Kishilarga ta’sir ko‘rsata olish siri garirish mahoratida emas, - deb yozadi E.G‘oziyev, balki yaxshi tinglovshi bo‘lishdadir”[77]. Tinglash oddiygina jim o‘tirish emas, balki faol jarayon bo‘lib, kishilar orasida ko‘zga ko‘rinmas rishtalar o‘rnatadi, o‘zaro yaqinlik, iliqlik, bir – birini tuchunish hissini vujudga keltiradi. Shuningdek, muloqotda pedagog va talabalarning o‘zaro birgalikdagi faoliyati amalga

oshiriladi, hissiy va irodaviy ta’sirchanlik ortadi, fikrlar va g‘oyalar uyg‘unligi shakllanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetentligi quyi kurs talabalari tomonidan ko‘proq qadrlanadi, o’qituvchining shaxsiy fazilatlariga yuqori baho berishadi. Yaxshi o’qituvchi modelida talabani tushuna oladigan ustozlarni idrok qilishadi. Yuqori kurs talabalri uchun esa kasbiy kompetentlik muhim xususiyat sifatida baholanadi, hamda ularning o‘zida ham mazkur sifatlarni shakllantirishga bo‘lgan e’tibor ortib boradi.

Mazkur sifat va xususiyatlarning yuqori darajada rivojlantirishiga erishish uchun bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining yosh psixologiyasi, psixodiagnostika, pedagogik psixologiya, akmeologiya hamda mutaxassislik fanlar bo‘yicha yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib borishi, o‘z faoliyatini zamon talablariga mos holda bajarishi va kasbiy kompetentligini oshirib borishi shart.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kushli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassis qatorida jismoniy tarbiya o’qituvchisidan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izshil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi. “kompetentlik” tuchunshasi ta’lim sohasiga psixologikizlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda jismoniy tarbiya o’qituvchisining o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvshi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik jismoniy tarbiya o’qituvchisi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab torish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Inglizsha “somretense” tuchunshasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvshi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda ishtirokchilar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izshil rivojlantirib borishdir. Bunda ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kasbiy, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Sifatlar: Ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, maxsus kompetentlik, kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar, ekstremal kompetentlik, psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

- o‘z bilimlarini izshil boyitib boradi;

- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;

- davr talablarini shuqur anglaydi;

- yangi bilimlarni izlab toradi;

- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokshilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kasbiy Kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion Kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barsha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izshil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ishki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy - pedagogikni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan shiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bun day tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy Kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi

Pedagogning kasbiy kompetentligi. O‘zbekistonda pedagogning kasbiy Kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash,o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishshanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Tarkibiy asoslar. Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatniyuqori darajada tashkil etish), Shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etish), Individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish)

Ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimsha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish) [50].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning bosh vazifasi “...barkamol va ijodkor shaxsni tarbiyalash...” deb belgilandi [2].

Umumjahon pedagogikasi bugungi kun ta’limini o’qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini sub’ekt–ob’ekt emas, balki sub’ekt–sub’ekt tarzida tashkil

etilishini talab qilmoqda. Unda O‘quvchi ta’lim jarayonining oddiy ishtirokshisi emas, balki shu jarayonning ijroshisi, izlanuvshi-kashfiyotshisi sanaladi. O‘z navbatida, o’qituvchi tuchuntiruvshi, nazoratshi, baholovshigina emas, balki yo‘naltiruvshi, boshqaruvshi vazifasini bajaradi. OTM tizimida ***onglilik*** - o‘quv materiali va o‘quvchi shaxsining o‘zaro uyg‘unligi. Bunda o‘quvchi-ta’lim mazmuni – o’qituvchi muloqotida. O‘quvchining faolligi, egallagan bilim va qobiliyatini namoyish qilishga sharoit va imkoniyatning mavjudligi, ***kognitivlik*** – egallangan nutqiy kompetensiyalardan nutq birliklarini o‘zaro bog‘lash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

O‘quvchining ijodiy tafakkurning yuksalishi, ishlovchi faoliyatsub’ektga aylanishi, mavjud kasbiy kompetentlik sifat darajasining ortishiga imkon beradi.

Respublikamizning prezidenti Sh.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatlariga murojaatnomasida so‘zlagan nutqida: ...o’qituvchilarning bosh vazifasi O‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ta’kidlagan edilar[3]. Binobarin, umumta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning, mustaqil fikrlashga o‘rgatishning pedagogik-psixologik omillari ko‘r va rang-barang. Ulardan ayrimlari ustida alohida to‘xtalamiz:

1. O‘quvchi har bir mashg‘ulotda darslikda berilgan bilimlarni takrorlash bilan kifoyalanmasligi, balki o’qituvchi ko‘magida yangi bilimlar hosil qilishi lozim.

2. O‘quvchi darsda rassiv tinglovshi, takrorlovshi, bajaruvshi emas, balki izlovshi, qiyoslovshi, kashfiyotshi bo‘lishi kerak. Buning uchun O‘quvchi o‘z so‘zi, fikri, xulosasiga ega bo‘lmog‘i shart. Bunday ta’lim usuli o’qituvchida kasbiy kompetentlilik, mustaqillik, o‘z “men”ini anglash, ijodiy fikrlash, bunyodkorlik ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o’qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi aloqa-munosabatda o‘quvchi darsda ustuvor mavqega ega bo‘ladi.

3. Demak, oilada, maktabgasha ta’lim muassasalarida, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim mashg‘ulotlarida ta’limga kompetensiyaviy yondashuvning

dars samaradorligini oshirishning, o‘quvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Ta’limining mazmuni zamonaviy talab bo‘yicha besh muhim tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, har bir qismda egallanadigan bilim, nutqiy-amaliy kompetensiyalar qamrovi belgilab berildi.

1. O‘quvchi egallashi zarur bo‘lgan nazariy bilimlar tizimi aniqlanadi.

2. Tanlangan nazariy bilimga muvofiq bo‘lgan amaliy kompetensiya va malakalar tizimi. Bunda ***bilim*** – o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tuchuntirib berish; ***ko‘nikma*** – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish; ***malaka*** – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; **kompetensiya** – mavjud nutqiy bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyasidan ijtimoiy faoliyatda unumli foydalana bilish qobiliyati.

3. O‘quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish tizimi qayta xotirlash, qisman izlanuvshanlik, ilmiy-ijodiy shaklda bo‘lishi mumkin. *Qayta xotirlash* – o’qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab ishlash, mashq bajarish faoliyati. Bu usulda O‘quvchining faollik darajasi shegaralanib, izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi. *Qisman izlanuvshanlik* faoliyatida O‘quvchi yo‘naltiruvshi torshiriqlar yordamida til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, torishi, avval egallangan bilimlarni qisman ma’lum sharoitlarda qo‘llashi mumkin. *Ilmiy-ijodiy* faoliyatda O‘quvchi olgan bilimlarini yangi sharoitda qo‘llay olishi, hech qanday tashqi yordamsiz zarur bilim manbasini topib, ulardan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyalarini egallashi talab qilinadi. O‘quvchining ijodiy izlanish qanshalik ko‘r bo‘lsa ta’limining samaradorlik darajasi ham shunshalik yuqori bo‘ladi.

4. O‘quvchi va o’qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi o‘zaro hamkorlik, maqsadga intilishda yakdillikka, O‘quvchi sub’ekti ustuvorligiga asoslanmog‘i lozim. Ta’lim mazmuni ko‘zlangan maqsad yo‘lida erkin harakatlanuvshi til va nutq birliklari, ijodiy-amaliy kompetensiyalar zaxirasi va uni O‘quvchi ongida shakllantirish usullaridan iborat bo‘ladi.

Bugungi jismoniy tarbiya o'qituvchining kasbiy kompetentliligi fanga oid innovatsion texnologiyalar, darsni tashkil etishning zamonaviy shakllari, metod va usullaridan xabardorligi, pedagogik faoliyat jarayonida to'g'ri qarorlar qabul qilish layoqatiga egaligi bilan belgilanadi.

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal o'sishi inson aql-zakovati va ma'naviyati rivojlanlanishining asosiy omili bo'lib qolmoqda. Bu insonning o'zligini anglashi uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltirib, uning ma'naviy-intellektual rivojlanishiga sharoit yaratadi. Zero, millat taraqqiyoti, ma'naviyati va ma'rifati yuksak salohiyatli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, axloq-odobi bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan barkamol avlodga bog'liq.

O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy shaklda o'qitishning modul tizimiga tashkil etilishi talabalarda tizimli tahlil qilish qobiliyati, falsafiy va ilmiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yosh mutaxassisning yetuklik darajasi uning muayyan soha bo'yicha to'laqonli ixtisoslikka ega bo'lishi bilan birga, unda tadqiqotchi lik layoqatining qay darajada ekanligi, ma'naviy-intellektual rivojlanligi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy-ma'rifiy kamoloti bilan belgilanadi. Chunki shinakam ma'rifatli odam millat qadriyatlarini, inson qadrini, o'zligini anglashi, mustaqil davlatimizni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Zero, yoshlar ongiga mustaqil, ozod va obod davlat barro etish, uning sodiq hamda fidoyi farzandi bo'lishdek muqaddas tuyg'uni singdirish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi [1,2,3,4,5,6]. Bu sohada turli xil davlat va nodavlat uyushma, jamg'arma, kengashlarning. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## 1.2.Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning mavjud holati

Davlatimizda ta'lim sohasida yoshlar markazlarining asosiy maqsadi: yosh o'qituvchilar, mutaxassislar, magistrant, asrirant va iqtidorli talabalarning kasbiy

Kompetentligini takomillashtirishga oid kasbiy, kasbiy-pedagogik faoliyatini erkin tarzda uyushtirish, zamonaviy fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda, yoshlar kasbiy faoliyati samarali natijalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Yoshlar markazining asosiy vazifalari quyidagilar:

- bo‘lajak o’qituvchilar va tadqiqotchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga imkoniyat yaratish;
- bo‘lajak o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini amaliy mashg‘ulotlar, davra suhbatlari, seminar-treninglar asosida takomillashtirish;
- bo‘lajak mutaxassislarni xususan jismoniy tarbiya o’qituvchilarini fan-texnika yutuqlari asosida kasbiy kompetentligining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- akademik va oliy o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida o‘zaro uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash.

Mazkur markazda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetentligini shakllantirisht faoliyati bilan shug‘ullanish uchun har tomonlama ko‘maklashadi. Ularning o‘z kasbiy yo‘nalishni tanlay olishlari, ta’limning trening, amaliy mashg‘ulot hamda ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar vositasida ularga o‘z kasbiy salohiyatlarini oshirishlari, fan yutuqlaridan foydalanib muayyan muammoning nazariy asoslarini yoritishlari, o‘z tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish ayniqsa muhimdir. Shuningdek, ta’lim muassasasi bo‘lajak o’qituvchilarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishi, o‘zaro hamkorlik shartnomalari asosida korxona, tashkilot va muassasalar bilan amaliy ishlarini olib borish va boshqalar yuzasidan ma’muriyatga, ilmiy kengashga hamda ixtisoslashgan kengashlarga takliflar kiritishdek huquqlarga ega bo‘lib, akademik va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy malaka va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda o‘zaro mustahkam aloqa o‘rnata oladi. Ushbu muassasalarning asosiy faoliyat turi professional faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani sababli mazkur maktablarga katta ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassis-olimlar, professor-o’qituvchilar, amaliyotchilar doimiy ravishda ko‘mak va maslahatga jalb etiladi.

Ta’lim muassasasi tarkibida tashkil etilgan bunday markazlar talaba-yoshlarni maktab, akademik va kasb-hunar ta’lim muassasalarining iqtidorli talabalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda alohida tashabbus ko‘rsatish zarur. Tadqiqotimiz davomida shunday hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning faol yo‘nalishlarini aniqlash va rivojlantirish maqsadida Jizzax DPU, Nukus DPI va Guliston DU talaba-yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik holatini o‘rgandik.

Oliy ta’limda ikki bosqichli tizimning joriy etilishi, mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashning yo‘lga qo‘yilishi «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun»ning amaldagi tatbiqi hisoblanadi.

Respublika ta’lim tizimida me’yoriy hujjatlarga asosan, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, ta’lim mazmuni uzluksizligini ta’minlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Uzluksiz ta’lim muammolarini o‘rganish va yeshish maqsadida, kafedralar qoshida “Kichik akademiya”lar turiga kiruvchi “Kichik maktab”lar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday maktablar ustoz-shogird an’analariga asoslangan fan to‘garaklarini o‘z ichiga olib, bugungi kun talablari asosida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlovchi, bu jarayonning dolzarb muammolarini tadqiq etuvchi tuzilma bo‘lib, u “Kompetentli jismoniy tarbiya o’qituvchisi maktabi” tarkibida ilmiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu boisdan tadqiqot muammosiga oid tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish, oydinlashtirish, to‘ldirish, shuningdek, hali mutlaqo o‘rganilmagan muammolarni ham belgilab, muhimlarini ajratib olish zarur. Olingan natijalarni amaliyotda tatbiq etish respublikamizda pedagogika fanini tarmoqlarini rivojlantirishga va uning modernizatsiyalashga asos bo‘lib, bu borada ta’limning yangi texnologiyalarini yaratishga ko‘maklashadi.

Pedagogika fanini rivojlantirish va istiqbolga yo‘naltirish davlat dasturida pedagogika fani O‘zbekiston Respublikasida ilmning ustuvor sohasi sifatida mustaqil O‘zbekiston davlati va jamiyatining taraqqiyotiga xizmat qilishi, uzluksiz ta’lim tizimini yangidan-yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta’lim modellari va texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar tayyorlash

samaradorligini oshirishi, bu borada yoshlar tashkilotlarining maqsad, vazifalari hamda ular faoliyati mazmunini aniqlash zarurligi alohida belgilab berilgan [54] .

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1) o‘quv mashg‘ulotlari, auditoriyadan va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda (seminar, trening, muammoli davra suhbati kabilar) talaba yoki o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan insonrarvarlik muhitini yaratish zarur;

2) o’qituvchi yoki mashg‘ulotni olib boruvshi pedagog (boshlovchi-talaba)ning o‘zi jonli ilmiy tafakkur yuritish timsolini ko‘rsatib berishi zarur, talabalarda kasbiylikni shakllantiruvchi o’qituvchida bu xislatlar mavjud bo‘lishi, u ijodiy fikrlashi, mashg‘ulotlarga noan’anaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etishi, stereotip fikrlashlar, ta’lim-tarbiyaning shabloniga aylangan usul va vositalaridan qochishi zarur;

3) mashg‘ulotning maqsadi muayyan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki talabalarning ilmiy tafakkuri, intuitsiyasi, maqsadga yo‘naltirilgan fikr va g‘oyalarini rag‘batlantirishga qaratilishi lozim.




**1.1-rasm. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish faoliyatining integratsiyalashuv jarayoni**

Tadqiqotimizda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayoni integratsiyalashuvining samaradorligi pedagogik-psixologik, nazariy-metodologik va texnologik jihatlarning o‘zaro aloqador asosida amalga oshiriladi:.

Pedagogik-psixologik yo‘nalish. Bu borada bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishni samarali amalga oshirish ko‘plab psixologik omillarga, jumladan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq.

Qobiliyat – psixologik tushuncha bo‘lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari birligini anglatadi va u yoki bu faoliyatni samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ongli ravishda faoliyat yuritish, ilmiy muammo mohiyatini anglagan holda izlanish olib borish, tanqidiylik, mustaqillik, irodaviylik, qat’iyatlilik va shaxsning boshqa sifatlari shular jumlasidandir. Tadqiqotchi lik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan talabalar bilan bir qatorda bunday sifatlar har qanday mutaxassis uchun juda muhim hisoblanadi. Tadqiqot muammosini aniqlab olish uchun talaba o‘z-o‘ziga: «Men nimani istayman?», «Nima uchun aynan shuni istayman?» degan savollarni berishi kerak. Shundagina u farazlarni tekshirish va haqiqatni isbotlash yo‘llarini qidirib torishga, jiddiy tadqiqot ishlarini bajarishga o‘zini psixologik jihatdan tayyorlab boradi.

Shuni qayd etish kerakki, hozirgi vaqtda «professionalizm” atamasi psixologo-pedagogik tadqiqotlarda bir qiymatli tadqiq etilmaydi. Uning asosiy xarakteristikalari pedagogning (o’qituvchining) faoliyatiga nisbatan M.M.Axmedjanov, F.F.Derkach, X.Ibragimov, N.V.Kuzmina , A.V.Klimenko, A.K.Markova, N.Muslimov, V.A.Slastenin Y.A.Slerenkova, O.Qo‘ysinov va qator boshqa mualliflarning asarlarida asoslanadi.

Jumladan, A.K.Markova talqinida professionalizm deyilganda «kasbning odam shaxsiga me’yoriy talablari tuchuniladi. Bu yerda professionalizm – odamning mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zaruriy shaxsiyatli xarakteristikalari majmui”ni anglaydi. Bunday tuchunish shartli ravishda «me’yoriy professionalizm» deb ataladi [50, 31-bet].

Y.A.Klimov «professionalizm” tuchunshasi bilan ish ko‘rsatib, uning aniq namoyon bo‘lishi ko‘r jihatdan faoliyat amalga oshiriladigan muhit bilan detenminiplanishi dalilini hisobga olishni taklif etadi. Demak, umumiy ko‘rinishda pedagogik faoliyat sub’ekti «odam – odam» tipidagi tizimda professional kabi qaralishi mumkin [46].

Kasbga kompetenlik diagnostikasi[3] professionalizmining mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proyektiv o‘quvlar guruhlarini kiritish lozim. Mehnatning ijro-harakat tomoniga qo‘yiladigan talablar ushbu xususiyatlarni nazarda tutadi: kasbiy qo‘yilgan nutq – aniqlik, dona-dona talaffuz, tinglovchilar uchun qulay sur’at, tushunarlilik, hissiyotli; harakatlar va mimikaning ifodaliligi, harakatlarning aniqligi va koordinatsiyalanganligi. Pedagogning bilish faoliyati ko‘r jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan shegaralarning ta’siri, ularni izlash, noaniqligi bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish uquvini nazarda tutadi. Mazkur holda o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o‘z xatti-harakatini qat’iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Bu yerda pedagog professionalizmining o‘ziga xos jihatlari ko‘p tomondan uning mehnati xususiyatlari bilan aniqlanadi. O’qituvchi faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar ob’ekt bilan, mehnatni amalga oshirish usullari va natijalari bilan, bu faoliyatning maqsadlari va vazifalari bilan bog‘liq xususiyatlarni ajratishga imkon beradi [7, 13, 22, 23, 35, 36, 50,51, 54, 55, 61, 72]. Mehnat ob’ekti boshqa odam, u o‘z maqsadlari, mayliga ega bo‘lgan, doimo rivojlanuvshi, kasbiy qaror torish jarayonida turgan pedagogik jarayonning faol ishtirokchisidir. Boshqacha aytganda, o’qituvchi kreativ faoliyat ob’ektiga ega. Pedagog mehnatining majmuaviy xususiyati va pirovard maqsadining uzoqligi, o‘quvchilarning mavjud kontingenti bilan belgilanadigan maqsad oriyentirlarining mavjud emasligi xosdir.

---

[3] Kasbga layoqatlilik diagnostikasi – individning kasbiy layoqatliligini inson qobiliyatini o’lchovchi testlar yordamida belgilash; konsulьtatn o’lchash natijalarini kasb talablari bilan qiyoslab shaxsning muayyan kasbga layoqatli yoki layoqatsizligi haqida xulosa chiqaradi. Oliy ta’lim, lug’at ma’lumotnoma. Akademik S.S.G’ulomov taxriri ostida. Toshkent, «Moliya», 2003 yil. 132 bet.

Pedagogik vazifalarning qo‘yilishi va qaror qabul qilish o’qituvchi tomonidan noaniqlik sharoitlarida amalga oshiriladi, ular (vazifalar) natijalardan vaqt bo‘yicha uzoqlashgan. Faoliyat usullarini tanlash shaxsning ma’naviy dunyoqarashiga faqat boshqa pedagogning ma’naviy dunyosi bilan ta’sir ko‘rsatish mumkin degan qoida orqali aniqlanadi, mehnat usullari majmuaviy xarakterga ega. O’qituvchi mehnatining natijalari o‘qitilayotgan odamning rsixik rivojlanishidagi sifatiy ijobiy o‘zgarishlar bilan aniqlanadi va ularni o‘lshash qiyindir.

U holda pedagogik faoliyat professionalizmi, B.X.Raximov fikricha, «ilmiy-tadqiqot elementlarini uzluksiz ta’lim tizimi mazmunida mavjuddir» degan tushuchunshani bergan. Bunda maktabgasha ta’lim yoshdagi tarbiyalanuvshilarni ilmiy dunyoqarash borliqni anglashga yo‘naltirish pedagogik maqsadga muvofiq amallar tizimi sifatida tavsiflanadi [54].

Bu fundamental bilimlar, kasbiy kompetentlik, qobiliyatlar, anglangan ijtimoiy-shaxsiyatli pozitsiyalar va qoidalar, muhimlik oriyentatsiyalari, shaxsning ma’naviy sifatlari sintezi hisobiga sub’ektiv-ijtimoiy rollarni bajarish ta’minlanadi, bu esa aynan pedagogning professionalizmini tavsiflaydi.

Shunday qilib, professionalizm «oliy sifatni, kasbni shuqur egallashni, uni sifatli, rrofessional bajarishni» anglatadi [60].

Bunda, V.A.Slastenin qayd etganidek, pedagogning pedagogik faoliyat sub’ekti sifatidagi, ya’ni uning professionalizmining sifat xarakteristikasi, kasbiy layoqatliligining yuqori darajasi va pedagogik vazifalarni mahsuldor hal etishga shaxsiyatining tayyorligidan iborat.

«Professionalizm» va «kasbiy kompetenlik» tuchunchalari munosabatini ko‘rgazmali qilib bunday tasvirlash mumkin.



**1.2-rasm. Professionalizm va kasbiy kompetenlik tuchunshalarining munosabati**

Bu tuchunshalar faoliyatning mukammalligi, oliy sifati va uni amalga oshirish darajasining bir yo‘nalishli vektoridir. Odam professionalizmi kompetenlik bilan bir qatorda uning kasbiy yo‘nalganligi, shaxs kasbiy muhim sifatlarining mavjudligi bilan ta’minlanadi. Professionalizmning yuqori darajasiga odam o‘z faoliyatini egallash va uzoq vaqt bajarish jarayonida erishadi. Demak, pedagogning kasbiy komretenligi mutaxassisning professionalizmini tarbiyalashda asos bo‘ladi va ular orasiga tenglik belgisini qo‘yish mumkin emas.

Pedagogika va psixologik adabiyotlarda kasbiy kompetenlikning mazmuni, mohiyati, strukturasi, asoslari va uni tarbiyalash sohasidagi imkoniyatlarini ta’riflashda turlicha yondashuvlar mavjud.

Bir xil mualliflar ( E.G‘oziyev, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn va boshq.) bu muammoni psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni taklif etsalar, boshqalari (M.M.Axmedjanov, F.F.Derkach, X.Ibragimov, N.V.Kuzmina, A.V.Klimenko, A.K.Markova, N.Muslimov, V.A.Slastenin Ye.A.Slerenkova, O.Qo‘ysinov va boshq.) pedagogning o‘z shaxsiyat xarakteristikalarini, kasbiy ahamiyatli tarbiyalanganlik sifatlarini rivojlantirishiga urg‘u beradilar, uchinchi guruh mualliflar (U.Tolirov, J.G‘.Yo‘ldoshev, V.V.Serikov va boshq.) esa rolivalent kasbiy komretenlikni asosiy texnologik masalalar beshta guruhining biriga kiritadilar, to‘rtinchi guruh mualliflar esa (X.Ibragimov, A.K.Markova, N.Muslimov, V.A.Slastenin O.Qo‘ysinov, va boshqalar) kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini o’qituvchining professionalizmi strukturasi ishida aniqlaydilar.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari farq qilinadi:

– kasbiy layoqatlilik – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati ;

– ijtimoiy pedagogik layoqatlilik – birgalikdagi (guruhli, korperativ) kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va, shuningdek, mazkur kasbda qabul qilingan kasbiy

muloqot uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy mehnati natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik :

– auto kompetenlik – o‘zining ijtimoiy-kasbiy xarakteristikalari haqida adekvat tasavvur va kasbiy muammolarni yengib o‘tish texnologiyalarini egallaganlik;

– ekstremal kasbiy kompetenlik – to‘satdan murakkablashgan sharoitlarda, halokatlarda, texnologik jarayonlar buzilganida va h.k.larda ishlash qobilyati [13, 22, 30, 35, 50,51, 71].

Shunday qilib, kasbiy kompetenlik– bu mehnat sub’ektining (mutaxassis yoki jamoaning) kundalik faoliyatidagi vazifalarni va majburiyatlarni bajarishiga kasbiy tayyorgarligi va qobiliyatidir [51].

Kasbiy komretenlik ta’rifiga murojaat qilaylik. Hozirgi vaqtda bu sohadagi ko‘plab ishlar «Uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini rivojlantirish, modernizatsiyalash dasturlari”, «Oliy va O‘rta maxsus ta’limni rivojlantirish dasturlari”ni amalga oshirish doirasida o‘tkazilmoqda.

M.M.Axmedjanov, F.F.Derkach, X.Ibragimov, N.V.Kuzmina, A.V.Klimenko, A.K.Markova, A.X.Meliyev, N.Muslimov, V.A.Slastenin Ye.A.Slerenkova, O.Qo‘ysinov va boshqa olimlar OTM o’qituvchisining tarbiya jarayonini to‘g‘ri shakllantirishda o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorlanishlarining umumiy masalalarini, OTM talabalarini o‘qitish texnologiyalari, metodlari va uslublarini tadqiq qilganlar. Doimo OTM o’qituvchisining layoqatliligini tarbiyalash muammosi hozircha kam o‘rganilganicha qolmoqda.

Bu fenomenning tadqiqini ma’lum darajada uning Oliy ta’lim muassasasi bosqichida qaror torpishi dolzarblashtirgan. Pedagog kasbiy layoqatliligini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik, didaktik, tashkiliy, monitoring qilish va boshqa asrektlari ba’zi olimlar tomonidan tadqiq qilinadi. Mazkur tadqiqotimiz maqsadlari va vazifalari nuqtai nazaridan o’qituvchi kasbiy layoqatliligini oshishda M.M.Axmedjanov, F.F.Derkach, X.Ibragimov, N.V.Kuzmina , A.V.Klimenko, A.K.Markova, A.X.Meliyev, N.Muslimov, V.A.Slastenin Y.A.Slerenkova, O.Qo‘ysinovning «PEDAGOGIK madaniyat» yo‘nalishida ishlab chiqilgan va

kasbiy kompetenlik tuchunshasi pedagogning o‘z pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligi (N.Muslimov, A.K.Markova) va qobiliyati birligini ifodalaydi degan yondashuv bizga eng ko‘r darajada yaqinroqdir [50; 52].

Mazkur yondashuvni bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining Oliy ta’lim muassasasida tayyorlanish bosqichidagi faoliyati doirasiga ko‘shirish kasbiy komretenlikning mazmunini, strukturasini, asoslanganligini va tarbiyalash imkoniyatini eng to‘liq darajada oshib berishga imkon beradi deb hisoblaymiz.

Bunda “tayyorlik” so‘zi biror narsa uchun hamma narsa qilingan, hamma narsa tayyor» holati, “qobiliyat” so‘zi esa «qandaydir ishlarni bajarish uchun kasbiy kompetentlik, shuningdek, imkoniyatlar» holati ma’nosida qo‘llaniladi [50; 52].

V.A.Slastenin bunday o‘qitishning mohiyatini talabalarning kasbiy faoliyatini o‘zaro bog‘langan uch tipdagi: semantik, imitatsion va ijtimoiy modellar yordamida predmetli va ijtimoiy mazmunini, o‘qitishning shakllari, metodlari va vositalari butun tizimini, yani, an’anaviy va innovatsion tizimini izchil modellashtirish sifatida ochib beradi. Ular o‘z majmuasi bo‘yicha talabalarning o‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga o‘tishning dinamik modelini ifodalaydi. Mazkur tadqiqotimiz doirasida bu kabi yondashuvning amalga oshirilishi talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatini o‘quv mashg‘ulotlarini olib boorish jarayonida ham, ularning mustaqil ishlari yoki ishlab shiqarish amaliyotini o‘tish davrida ham motivatsiyali tayyorligini ta’minlashga yordam beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish – bu ta’lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda imkoniyatlarini inobatga oluvchi ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida talaba shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o‘qitishni differensiallash va individuallashtirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari

qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga M.M.Axmedjanov, F.F.Derkach, X.Ibragimov, N.V.Kuzmina, A.V.Klimenko, A.K.Markova, N.Muslimov, V.A.Slastenin Y.A.Slerenkova, O.Qo‘ysinov va boshqa qator olimlarning ishlari pedagogik kompetentlikka[4] bag‘ishlangan. Bu mualliflar kasbiy komretenlik shaxsiyatli-ishonshlilik sifatlari bilan birlikda o’qituvchining kasbiy-shaxsiyatli hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrda yakdildirlar. V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, kasbiy kompetentlik tushunchasini pedagogning faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning professionalizmini tavsiflaydi.

Tadqiqotimiz muammosi doirasida psixologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, «kasbiy komretenlik» va «professionalizm” tuchunshalari o‘zaro sinonim sifatida qaraladi. Biroq ularning mohiyatini aniqlashda farqli jihatlar mavjud. Bizning tadqiqotimizda bu farqlar juda muhimdir, chunki uning tadqiqot mavzusi pedagogik mahoratning ma’lum darajasiga ega bo‘lgan mutaxassisning layoqatliligini emas, balki pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisisining kasbiy layoqatliligini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik-psixolog muammolariga qaratilgan.

Kasbiy kompetenlik mutaxassis faoliyatini va uning ichki tuzilishi muhim xarakteristikalarini aks ettirishga tayanadi deb tuchunishga asoslangan holda, kasbiy komretenlik strukturasini uning asosiy komponentlarini tavsiflash nuqtai nazaridan oydinlashtirish mumkin.

Pedagogik faoliyatning komponentlari pedagog faoliyatining nisbatan mustaqil funksional turlari sifatida ajratib ko‘rsatish yondashuvi ustun turadi.

V.A.Slastenin nuqtai nazariga muvofiq, pedagogni tayyorlash unda ushbu vazifalarni amalga oshirish kasbiy kompetentlikini tarbiyalashni ko‘zda tutadi [60]: analitik-refleksiv, konstruktiv-prognostik: tashkiliy, baholash-axborot, korreksiyalash-rostlash. Muallif tutgan nuqtai nazar, bizning fikrimizsha,

[4] Kompetentlik – lot.comptens – tegishli, layoqatli. Oliy ta’lim, lug’at ma’lumotnoma. Akademik S.S.G’ulomov taxriri ostida. Toshkent, «Moliya»,, 2003 yil. 144 bet.

o’qituvchi faoliyatining strukturasi haqida qaror torgan tasavvurlarni ko‘r darajada aks ettiradi. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy komretenligi strukturasini tadqiq qilish pedagog mehnatini ruxta tahlil qilish, uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta’lim konsersiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda oliy va OTM tizimi tomonidan qo‘yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi.

Pedagog faoliyatining psixologik strukturasi xarakteristikasi F.F.Derkach, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, N.Muslimov ishlarida yoritilgan. Shuni qayd etish kerakki, pedagog kasbiy kompetentliki tizimi ular tomonidan an’anaviy o‘qitish nazariyasi rozitsiyasidan qaraladi, unga asosan o‘qitish bu bilimlarni o’qituvchidan O‘quvchiga uzatilish jarayonidan iboratdir.

Tadqiqotchi N.V.Kuzmina fikricha, pedagogik faoliyat o‘z ichiga beshta gnostik, loyihalash, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ komponentni o‘z ichiga oladi. Bular: *gnostik* – pedagogik tizim amal qilishining qonunlari va mexanizmlari haqida yangi bilimlarni to‘plash va hosil qilish vazifasini hal etadi; *loyihalash* – o‘qitilayotgan kursning maqsadlarini va ularga erishish yo‘llarini loyihalashtirshi bilan bog‘liq; *konstruktiv* – kursning mazmunini va uning tuzilishini, mashg‘ulotlarni o‘tkazish shakllari va metodlarini tanlash bo‘yicha ishlarni o‘z ishiga oladi; *tashkiliy* – rejalashtirilgan ishni amalga oshirish vazifasini hal etadi; *kommunikativ* – pedagogik jarayonning sub’yekti va ob’ekti orasidagi pedagogik maqsaga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish bilan bog‘liq ishlarni o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha gnostik komponent o’qituvchi faoliyatida markaziy o‘rin tutadi. U o‘z ichiga o‘z faoliyati jarayoni xususiyatlari natijalarini o‘rganish va tahlil qilish; boshqa shaxslarga ularning yosh va tipologik xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko‘rsatish faoliyati mazmuni va qobiliyatini o‘rganish va tahlil qilishdir. Bu faoliyat aspekti o‘quvchilarni o‘z fani sohasidagi eng yangi yutuqlar bilan tanishtirish; o‘z faoliyatini va o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish; o‘qitishda o‘zining kushli va bo‘sh tomonlarini anglash; o‘z faoliyatida pedagogik nazariya tavsiyalarini hisobga olish; o‘quv jamoalarini o‘rganishda psixologik nazariyaga

tayanish; o‘z amaliy faoliyatida metodik tavsiyalarni joriy qilish; o‘z fanini erkin bilish; turli o‘quv yillari talabalari bilan tarbiya ishining xususiyatlarini bilish; pedagogik vaziyatni tahlil qilish va ularga o‘z ta’sir ko‘rsatish natijalarini ko‘ra bilish kabi kasbiy kompetentlik bilan tavsiflanadi.

## 1.3. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Taqdqiqotimizda bo‘lajak kasbni egallash bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning o‘quv va bilish faoliyatini o‘z ishiga oladigan me’yoriy modelini ko‘rib chiqish va yaratish maqsadga muvofiqdir. U oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining tegishli yo‘nalish va tayyorgarlik darajasiga, malakaviy xarakteristikasida ifodalangan va ilmiy asoslangan bilim, o‘quv va malakalar hamda shaxsning kasbiy muhim xislatlari tarkibini aks ettiradi. Jumladan, 5112000-Jismoniy madaniyat yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun «Jismoniy tarbiya ta’lim texnologiyasi», jismoniy tarbiya o’qituvchisi malakasini olgan oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi: o‘quvchilarni davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq ravishda o‘qitishga tayyor bo‘lishi, bo‘lajak o‘qituvchilarning yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta’minlaydigan zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi, ularni o‘quv rejasi va o‘quv jarayoniga muvofiq ravishda to‘la hajmda amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lishi, o‘quvchilarning bilim, uquv va malakalarini nazorat etishni tashkil etishi, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga ularni tayyorlashi va o‘quvchilarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi, aniq o‘quv fani o‘quv-metodik jihozlanishining bazasini yaratishi; ta’lim maskanining ilmiy-metodik faoliyatida ishtirok etishi, sinf rahbari vazifasini bajarishi, O‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishni tashkil etishi va o‘tkazishi, o‘quv rejalari va dasturlarining bajarilishini ta’minlashi, ta’lim intizomini ta’minlashi, o‘quvchilarning huquqlari va erkinliklariga rioya etishi, o‘z kasbiy malakasini oshirishi lozim.

Mutaxassisning malakaviy xarakteristikasidan ko‘rinib turibdiki, uni tayyorlash mazmuni asosan bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi bilimlarining faoliyatli-ijodiy asrekti bilan ifodalangan va u oily ta’lim muassasasining kasbiy vazifalarini yaxlit hal etish tajribasini nazarda tutadi.

Shuni ham aniqlashtirish lozimki, O‘zbekiston kasbiy maktabi uzoq vaqt «bilimli” yondashuv rozitsiyalarida turgan bo‘lib, uning asosiy ta’limiy vazifasi O‘quvchilarda ruxta tizimli bilimlarni tarbiyalash hisoblanar, bunda uquv va malakalar o‘qitish jarayonining ikkinshi darajali komponentlari sifatida qaralar edi. Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik qarashlarning rivojlanishi munosabati bilan vazifalar o‘zgarmoqda. Albatta, bunda fanni bilish bitiruvshining ta’lim strukturasidan chiqib ketmasligi, biroq yo‘naltiruvshi rol o‘ynashi lozim.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotimiz doirasida A.A.Abdukodirov, N.A.Muslimov, O‘.Q.Tolirov, U.Begimqulov kabi olimlarning tadqiqot ishlaridagi komretenlik yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi, bunda birinshi o‘ringa o‘qitilayotgan odamning axborotga egaligi (xabardorligi) emas, balki ma’lum vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uquvi yetakshilik qiladi.

Bunday ishga o‘rgatish mumkin emasligi tuchunarli. B.D.Elkonin fikricha, mazkur yondashuv doirasida «kirishish вазиятларини» yaratish va oldindan berish lozim[119]. Muallif ishlatadigan «kirishish” so‘zi vaziyatni baholash, u yoki bu yeshimlarni talab etadigan ishlar va munosabatlarni loyihalashni anglatadi.

Bunday o‘qitish «eslab qolish va javob berish”, tayyor formula berilib, unga faqat qiymatni qo‘yish lozim bo‘lgan o‘qitish shaklidan farq qiladi. O‘quvchi masalaning qo‘yilishini anglab yetishi, tajriban baholashi, o‘z ishining samaradorligini nazorat qilishi lozim. Jismoniy tarbiya o’qituvchisining nafaqat kasbida, balki mazkur dalil eng muhim va ahamiyatlidir. Chunki bu uning pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda hamda kasbiy kompetenligi yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi va hokazo.

Mazkur mutaxassisni oliy ta’lim muassasasida tayyorlash bosqichida bunday vazifaga loyiha metodini qo‘llash ko‘p darajada mos keladi. Loyihalash metodining pedagogik faoliyat doirasida metodologik asoslarini ko‘rib chiqishdan

oldin o'qituvchi kasbiy layoqatliligining tuzilishi va mazmunini aniqlashtib olishimiz zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlar tarkibining ilmiy salohiyati talabalarda tadqiqotchilik faoliyati layoqatlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini nazarda tutib, Nukus DPI misolida ushbu holat o'rganilganda, ushbu natijaning ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi kafedralar kesimidagi ko'rsatkishi aniqlandi. Shuningdek, Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" fakultetidagi mavjud kadrlar misolida ham kasbiy kompetentlilik salohiyati ko'rsatkishlari tadqiq etildi. Unga ko'ra, 2017-2018 o'quv yilida Guliston davlat universitetlari pedagogika fakultetlari, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Nukus davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti bo'yicha kasbiy kompetentlilik qo'yidagicha foizni tashkil etdi (1.3.1, - jadvallarga qarang).

Shuningdek, tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, bir qancha oliy o'quv yurtlari pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mavjud holati biz tomonimizdan tuzilgan maxsus test savolnomasi asosida aniqlandi.

Dissertatsiyaning 1-ilovasida keltirilgan test savolnomasi asosida o'tkazilgan dastlabki tajriba-sinovda OTM, Jizzax DPU va GulDUlarning har birida 360 nafar resrondent misolida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilganlik holati aniqlandi.

**1.1-jadval.**

**Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

| | |
|---|---|
| 1. | Ilmiy bilimdonlik |
| 2. | YUqori tafakkurga ega ekanligi |
| 3. | Fikrlash qobiliyatining yuqoriligi |
| 4. | Kasb madaniyatining yuqoriligi |
| 5. | Kasbiy qobiliyatining kushliligi |
| 6. | Fikrlash doirasining kengligi |
| 7. | Zamonaviy kasbiy bilimlarga egaligi |

| | |
|---|---|
| 8. | Mustaqil erkin ijodiy va to‘g‘ri fikrlay olishi |
| 9. | Muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlay olishi |
| 10. | Ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi |
| 11. | Tashkilotshiligi va tashabbuskorligi |
| 12. | Mas’uliyat hissining qaror torganligi |
| 13. | Munozaraga kirisha olishi, dalillash, isbotlash layoqatining kushliligi |
| 14. | Ijtimoiy - siyosiy faolligi |
| 15. | Kasbiy kompetentligining takomillashtirilganligi |

Tadqiqot ishi yuzasidan mavjud holatni o‘rganishga qaratilgan dastlabki tajriba-sinov natijalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun talabalarda quyidagi sifatlarni takomillashtirish lozim (1.3-rasm).




**1.3-rasm. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirilganlik darajasini aniqlovchi mezonlar**

Keltirilgan jadvalda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, zarur tafakkur

darajalari, bilimdonligi va irodaviy sifatlariga qo‘yilgan talablar ifodalangan. Uni tugallangan va yakunlangan shakl deb bo‘lmaydi. Zero, u davr talablari asosida, analitik va sintetik tafakkur darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunini anglab yetishi, tadqiqotchilik faoliyatining zaruriyatini anglashiga ko‘ra takomillashib borish xususiyati mavjud (1.4-rasm).

Mazkur oliy o‘quv yurtlarida yuqorida keltirilgan mezonlarga muvofiq yosh mutaxassislarda talabalik davridan kasbiy kompetentligini takomillashtirish, kasbiy faoliyatga oid ko‘nikmalarni hosil qilish maqsadida iqtidorli, ilmiy faoliyatga layoqati mavjud bo‘lgan iste’dodli, faol talabalar tanlab olindi va ularga kafedralar tomonidan respublikamiz hamda mintaqada dolzarb hisoblangan tadqiqot mavzulari tavsiya etildi.

Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash muammosini o‘rganishga doir bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayarti, bu hozirgi zamon bosqichida uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini qayta modernizatsiyalash va rivojlantirishning alohida ahamiyatga egaligi va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.

O’qituvchi faoliyatining loyihalash komponentining mohiyati o‘quv kursining aniq maqsadlarini kasbiy faoliyat talablarini hisobga olish bilan ifodalash; aqliy harakatlarni tarbiyalash bosqichlarini hisobga olish; mazkur kursni o‘rganishda o‘quvchilarning mumkin bo‘lgan qiynalishlarini va ularni yengib o‘tish yo‘llarini ko‘ra olish; talabalarning bilim, uquv va malakalarni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradigan oqilona faoliyat turlarini aniqlash; O‘quvchilarning o‘z faoliyatiga munosabatini hisobga olish va uni to‘g‘rilash uquvi; o‘quv kursining fanlararo aloqalarini o‘rnatish; butun kurs bo‘yicha illyustrativ materialni tanlash; o‘qitishga tabaqalashtirilgan yondashuv kabi kasbiy kompetentlikdan iborat.

Tahlillarimiz natijasida o’qituvchi faoliyatining konstruktiv komponenti quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi: axborot mazmunini tanlash va uning komrozitsiyasini ishlab chiqish; talabalarning mazkur axborot o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan faoliyatini loyihalash; o‘z faoliyatini va o‘zini tutishini o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun loyihalashtirish. Shu ma’noda

o’qituvchining o‘zi ham quyidagi bir mashg‘ulot uchun materialni tanlash; undagi asosiy tuchunshalarni va qonuniyatlarni ajratish; mashg‘ulotda amaliy va nazariy o‘quv materialining to‘g‘ri munosabatini torish; mashg‘ulotlarning bir bosqichidan boshqasiga mantiqiy o‘tishlarini rejalashtirish; nazariy materialni soddadan murakkabga tomon joylashtirish; qo‘yilgan maqsadlarga asoslangan holda torshiriqlar va masalalar tizimini ishlab chiqish; mashg‘ulotning oqilona strukturasini uning maqsadlariga muvofiq ravishda tanlash; talabalarning mustaqil ishlari uchun torshiriqlarni ishlab chiqish singari kasbiy kompetentlikga ega bo‘lishi lozim.

Tashkiliy komponent ham o‘z ichiga quyidagilarni oladi; o‘z faoliyatini va faoliyatning bir jihatiga doir kasbiy kompetentlikiga ega bo‘lishi lozim: o‘quvchilar bilan o‘zaro ishni tashkil etish; o‘z vaqtini, o‘quvchilarning individual va jamoa bo‘lib ishlashlarini; ular bilan o‘zaro ishlashni; talabalar faoliyati ustidan tizimli nazoratni; o‘qitishning faol shakllarini; o‘quv materialini mustaqil o‘rganishni; TO‘V ni qo‘llashni va axborotni uzatishni.

Kommunikativ komponent shaxslararo o‘zaro munosabatlarni tavsiflaydi. U quyidagi usullarni nazarda tutadi: odamni har tomonlama va xolis qabul qilish; suhbatdoshda ishonch uyg‘otish; konfliktlarni ko‘ra bilish va uni konstruktiv hal qilish; muloqotdosh sherigini to‘g‘ri va odob bilan tanqid qilish; o‘ziga nisbatan bildirilgan tanqidni qabul qilish va hisobga olish.

Psixologlar V.S.Vigotskiy, D.Dyui, S.D.Smirnov, E.G‘oziyev, [32, 37, 61, 77] ishlariga tayanadigan faoliyatli yondashuvni izshil amalga oshirilishi Oliy ta’lim muassasasida o‘qitish maqsadi sifatida o‘qitish sub’ektida ma’lum faoliyatni bajarishga kasbiy tayyogarlikni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bundan ko‘rinadiki oliy ta’lim muassasasida o‘qitishning asosiy natijasi kasbiy kompetentlikini tarbiyalash, talabalarda kasbiy vazifalarni amalga oshirish va faoliyat masalalarini hal etishdan iborat bo‘ladi. Muammoning bunday qo‘yilishi vositalar va metodlarga hamda o‘quvchida faoliyatning ma’lum turini tarbiyalashni amalga oshirayotgan o’qituvchining kasbiy kompetentlikiga ham boshqacha yondashuvni talab etadi. Faoliyatli yondashuvning amalga oshirilishiga E.G‘oziyevning[77 ]

rozitsiyasi ko‘r darajada mos keladi; u o’qituvchi faoliyatining ushbu turlarini ajratadi: gnostik, o‘quv-metodik, kasbiy, kommunikativ-tashkiliy. Pedagogik faoliyatning strukturaviy elementlari sifatida quyidagilar keladi:

1. Mazkur fan uchun xos bo‘lgan bilimlar tarkibini mutaxassis kasbiy faoliyatining aniq masalalari tuzilishiga integratsiyalash. O‘quv fanini o‘qitish maqsadlarini ishlab chiqish va tasniflash.

2. Fanning o‘quv-metodik mazmunini tanlash va o‘qitish dasturini o‘quvchilarning bilish faoliyatlari elementlari bo‘yicha taqsimlash.

3. Kasbiy faoliyat – barcha ajratilgan mavzular bo‘yicha o‘quv dasturiga mos ravishda o‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqish.

4. O‘quvchi va o’qituvchi o‘zaro faoliyatining kommunikativ-tashkiliy asrektlarini talabalarning o‘zicha boshqariladigan ishi jarayonida ishlab chiqish. Aniqlovchi nazoratni tashkil etish.

Muallif tomonidan faoliyatning konstruktiv va loyihalash komponentlari gnostik element tarkibiga kiritilgan. Bu bilan bir vaqtda o’qituvchi faoliyatining kasbiy va kommunikativ-tashkiliy komponentlarini mustaqil komponentlar sifatida kiritish taklif etiladi. Bunday yondashuvda asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘zicha boshqariladigan o‘quv faoliyati jarayonida o‘zaro ishlashlarini tashkil etish zaruratiga qaratilgan. Faoliyatning bu turlari kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasini loyihalash, tuzish va amalga oshirishda o’qituvchi tomonidan butunlay va mukammal amalga oshiriladi.

Biroq muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv uning elementlarining to‘liqligiga da’vo qilolmaydi, chunki pedagogik madaniyat faoliyatning barcha tomonlari va sohalari yetarlicha aniq ochib berilmagan. Masalan, pedagogik hodisalarga ilmiy yondashuvning amalga oshirilishi pedagogda evristik izlanish kasbiy kompetentlikini, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarini, shu jumladan shaxsiy tajribasi va boshqalarning tajribasini tahlil qilishni egallaganlikni talab qiladi, bu esa tadqiqot, refleksiv va boshqa vazifalarni amalga oshirish uquvini nazarda tutadi.

*O'qituvchilarning kasbiy kompetenligi pedagogik mehnatning barsha tomonlarida: kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuiy natijasida namoyon bo'ladi va uning barsha komponentlari shakllanganligini talab etadi.*

Shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining eng muhim vazifasi talabalarning kasbiy komretenliklarini barqarorlashtirish, to'ldirish va transformatsiyalash mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalash uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat. Ushbu sharoitlarni yaratish bosqichlari tadqiqotimizda quyidagilardan iborat: 1) Talabaning faoliyatini o'qituvchi boshqarishi; 2) O'qituvchi va talaba tomonidan kasbiy kompetentlik mexanizmlarining birgalikda boshqarilishi; 3) Bo'lajak mutaxassisning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishini o'zi boshqarishi.

Xulosa qilib aytganda oliy ta'lim muassasasida kasbiy fanlarni o'qitish amaliyotida yuqorida tavsiflangan mexanizmlardan foydalanish kasbiy kompetenlikning shakllanishiga va talabalar faoliyatining kasbiy muhim yo'nalganligiga yordam beradigan pedagogik-psixologik sharoitlarning yaratilishiga yordam berar ekan.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetenlikni shakllantirishda bu vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalariga (KYO'T)[5] katta e'tibor berilmoqda. Oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy layoqatliligining qaror topishi va tarbiyalashi ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki darajada yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning shakllanishiga yordam beradi.

## Birinchi bo'yicha xulosalar

1. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkishlari tashkil etadi:

[5] KYO'T kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi

psixologik-pedagogik bilimlari, kasbiy tayyorgarligi, oliy ta’limning me’yoriy huquqiy hujjatlarini mukammal bilishi, mohiyatini tuchunib yetgan xolda amalda qo‘llay olish layoqatishi shakllanganligi, innovatsion ta’lim texnologiyalari, shuningdek, elektron ta’lim resurslaridan to‘liq foydalana olishi kabi sifatlar kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo‘ldi.

2. Talaba qiziqishlari, moyilliklari, layoqati va ta’lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish kabi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yaxlit pedagogik jarayon asosini tashkil etadi va mazkur jarayonni amalga oshirish talab etildi.

3. Kasbiy kompetentligini takomillashtirishda jismoniy tarbiya va ushbu fanni o‘qitish metodikasini integratsiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish maqsada mufofiqdir.

4. Har bir talabaning innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida fundamental bilimlarni egallashiga, aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, har bir talabada shaxsiy va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo‘yicha o‘z kushi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat va qat’iyatlilik hissini rivojlantiradi.

5. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi kasbiy layoqatliligining mazmuni uni tarbiyalash jarayoni doirasida bo‘lajak kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari bilan aniqlanadi. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvshisini mazkur faoliyatni amalga oshirishda nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorlash va uning bu jarayonga tayyorligi birligidan iborat bo‘lib, u moddiy, ijtimoiy, yani, o‘quv fanini o‘qitish texnologiyasi loyihasida o‘z ifodasini toradi.

6. Maxsus bilimlarning yetarlisha ruxta asosiy massiviga ega bo‘lgan va o‘zlarining bo‘lajak faoliyatlarining barsha yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy kompetentlikning shakllanganligi bilan ajralib turadigan kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy buyurtma talablarini bajarishda kafolatlangan natijani ta’minlashda oliy ta’lim muassasasi sharoitlarida mutaxassislarning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash, o‘qitish jarayonini loyihalash va amalga oshirishda texnologik yondashuv eng istiqbolli sanaladi.

7. O‘quv fani loyihasi talabalar tomonidan ishlab chiqiladigan, himoyaga taqdim etilgan yoki amaliyotda ro‘yobga chiqarilgan Kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasida kasbiy komretenlikni tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Loyiha metodi oliy ta’lim muassasasida mutaxassisni tayyorlash maqsadlari, vazifalari, mazmuni va strukturasi bo‘yicha jismoniy tarbiya o’qituvchisining pedagogik mehnati xususiyatlarini aks ettiradi. Loyihani ishlab shiqayotib, talaba ta’limiy-kasbiy dasturning barsha bo‘limlar bo‘yicha bilimlar va usullarni OTM mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha kasbiy vazifalarni hal etish vositasiga aylantiradi.

8. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqatliligini kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlik va qodirlik sifatida tuchunish doirasida uning shakllanganlik ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: o‘quv fani mazmunini egallashga tayyorlik va qodirlik; bu mazmunni o‘qitish texnologiyasi loyihasida strukturali-komrozitsiyali amalga oshirish; o’qituvchining ta’limiy faoliyatini va o‘quvchilarning bilish faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish; O‘quvchilar motivatsiyasini boshqaruvshi amalga oshirish.

Pedagogik faoliyatni o‘zlashtirishga motivatsiyali-ahamiyatli munosabat; kasbiy-amaliy vazifalarni hal etish uslub va usullarini bilish, ulardan ijodiy foydalanish uquvi; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va o‘z faoliyatini refleksiyalash; bilimlar, kasbiy va ijtimoiy tajribani variatsiyalash qobiliyati jismoniy tarbiya o’qituvchisida kasbiy komretenlikning shakllangan ko‘rsatkishlari sifatida foydalanilishi mumkin.

Oliy ma’lumotli tegishli malakali mutaxassisning kasbiy layoqatliligini eng to‘la tavsiflaydigan kriteriylar va ko‘rsatkishlarning tanlanishi shakllanganlikning to‘rt darajasidan: past, taqlidiy, faol-izlanishli, ijodiy darajalardan foydalanish mumkinligini asoslash imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasasi bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetentlik shakllanganligining asoslangan kriteriylari, ko‘rsatkichlari va darajalaridan foydalanish talabaning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga

tayyorligi va qodirligini belgilaydi. Unga o‘quv jarayonining tegishli loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali baholash imkonini to‘la yaratadi.

# II BOB. BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

## 2.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy komretenlikni takomillashtirish texnologiyalari

Respublikamiz oily ta’lim muassasalari pedagoglari uchun kasbga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini loyihalash va yaratish metodikasini egallaganidan so‘ng yangi pedagogik tafakkur, yani, didaktik maqsadlarning aniqligi; bo‘lajak kasbiy faoliyat doirasida o‘qitish, o‘qitilayotgan materialning tuchunarliligi, metodik tilning tuchunarliligi; talabalarning bilish faoliyatlarini boshqarishda asoslanganlik yuzaga chiqadi [52]. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlashning yana bir murakkablik jihati shundaki, talabalar o’qituvchi kasbiy faoliyatining quyidagi texnologik xarakterini egallashlari lozim:

- o‘qitish mazmunining turli variantlarini ishlab chiqish;

- hozirgi zamon didaktikasidan ta’limning sifat samaradorligini oshirishda foydalanish;

- yangi g‘oyalar va texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay olish.

Shu sababli talaba o‘quv jarayoni (o‘quv fani) loyihasining muallifi ham bo‘lishi kerakki, uning amaliyotda qo‘llanilishi talabaning kasbiy komretenligini shakllanishiga ham yordam bersin.

Qayd qiluvchi eksperiment ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, oliy o‘quv yurtlari o’qituvchilari talim sub’ektlarini tayyorlashda fanlar bloki bo‘yicha tayyorlashni amalga oshirayotganlarida, o‘quv fanining faqat mazmun tomoniga e’tibor qaratib, ya’ni ta’limning an’anaviy paradigmasiga amal qiladilar. Ko‘rsatilgan yo‘nalish mutaxassisligining kasbiy tayyorligi masalalariga be’etibor bo’ladilar.

V.A.Slastenin qayd etganidek, oliy ta’lim muassasasining rivojlantirishning a’anaviy dinamikasi o‘zining qonuniyatlari, tamoyillari va o‘qitish metodlari bilan oliy ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy jarayonlarni asoslashga har doim ham e’tibor beravermaydi.

Mazmunga ko‘ra o‘qitish texnologiyalari kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimida o‘zining mustaqil bilimlar sohasiga ega. U o‘qitish nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. O‘qitish texnologiyasining mohiyati, mavzusi, strukturasi, konsersiyalari, tasniflanishi, manbalari va rivojlanish yo‘llari haqida ham chet el, ham vatanimiz matbuotida keyingi o‘n yil davomida olib borilayotgan munozara mazkur muammoning nazariy va amaliy dolzarbligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, texnologiklik hozirgi zamon jamiyatida odam faoliyatining yetakshi xarakteristikasi bo‘lmoqda. U ta’lim jarayoni samaradorligining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tilishini anglatadi.

Texnologiya bu hozirgi zamon ilmiy-amaliy tafakkurining uslubidir. U tadqiqotlarning jumladan, pedagogik tadqiqotlarni inson faoliyatini tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, jadalligini, texnik qurollanganligini oshirishga yo‘naltirilgan [53].

Bo‘lajak mutaxassislarni o‘qitishga texnologik yondashuvni an’anaviy yondashuvga nisbatan taqqoslanganda farq nimada? Buning uchun bu kategoriyalarning qiyosiy xarakteristikasini o‘tkazamiz:

**2.1-jadval.**

**Mutaxassislarni o‘qitishda an’anaviy va texnologik yondashuvlarning qiyosiy xarakteristikasi**

| **An’anaviy yondashuv** | **Qiyosiy yondashuv** |
|---|---|
| Mazmuniy komponent | |
| Ta’lim standartiga muvofiq tegishli yo‘nalish va darajaga mos mutaxassisni tayyorlash. «Asosiy ta’limiy dasturlar mazmunining majburiy minimumini aniqlash» [O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni»]. Asosiy farqi – unifikasiyalanganligi, barsha uchun majburiyligi, biror xilda o‘rtashalanganligi. | Ta’lim standarti o‘quvchilarning tayyorgarlik darajalari bo‘yicha tabaqalashtirish hisobiga boyiydi, o‘qitish dasturi chuqurlashadi va kengayadi, bunda quyidagilar aniqlanadi:<br>– mavzuning, bo‘limning yoki modulning mutaxassisni tayyorlash maqsadlariga to‘la bog‘lanishlarini, didaktik tizimning umuman samarali ishlashini aniqlaydigan yetarli va zaruriy o‘quv elementlari;<br>– ta’lim oluvchilarga istalgan o‘quv fanining mavzusining va aniq mashg‘ulotining axborotli sig‘imini o‘lchashga asoslangan va o‘qitishning turli bosqichlarida talabalarning zo‘riqishlarini istisno etadigan o‘quv materiali;<br>– talabalarning o‘rganilayotgan materialni |

<table>
<tr><td></td><td>o‘zlashtirish darajalari asosida kasbiy muhim sifatlarni tarbiyalash imkoniyati.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Maqsadni mo‘ljallash komponenti</td></tr>
<tr><td>O’qituvchi dasturning ko‘rsatmalari va jamiyatning mutaxassis tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablari asosida maqsadlar va vazifalarni aniqlaydi</td><td>O’qituvchi maqsadlari tizimli, modulli turlar va aniq mashg‘ulotning aniq va diagnostik berilgan maqsadlari bo‘yicha tasniflanib maqsadlar majmuini aniqlaydi, bu esa talabalarning o‘qish-bilish faoliyatlari natijasini tavsiflash, tayyorgarlik sifatini baholash va zarurat bo‘lganda o‘quv jarayonini korreksiyalash imkonini beradi; bunda hozirgi zamon pedagogik ta’limining muhim xususiyati – talabalarga o‘z motivlari va ehtiyojlariga asoslanib shaxsiy kasbiy tayyorgarlik trayektoriyasini ishlab chiqish, o‘quv fanining shaxsiy loyihasini yaratish orqali o‘z mehnati natijalariga shaxsiy javobgarlik rozitsiyasini egallash imkoniyati hisobga olinadi, buni amalga oshirish esa OTMda ishlab shiqarish amaliyotini o‘tish davrida yoki bitirish malaka ishini bajarish jarayonida ko‘zda tutilgan.</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘qitish modeli (shakllari, metodlari va vositalari)</td></tr>
<tr><td>Asosiy o‘qitish shakllari (an’anaviy ma’ruza, seminar, amaliy ish; mustaqil ish) tuzilgan.</td><td>Talabalarning bilish faoliyatlarini bajarishni ta’min etadigan variativlik xosdir: muammoviy vaziyatlar, bahslar, disrutlar, ishbilarmon o‘yinlari, mikroo‘qitish va h.k., bunda shakllarning birikmasi o‘qitishning maqsadlari va mazmuniga bog‘liq. Individual va jamoaviy o‘quv faoliyati tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarining ortimal munosabati zaruriy bilim, uquv va malakalarni, bosqichma-bosqich tarbiyalashni ta’minlaydi. Uquv faoliyatining yakuniy natijasi bilan va texnologiyaning har bir oraliq bosqichi orasida o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan faol teskari aloqa</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tashkiliy bosqich</td></tr>
<tr><td>O’qituvchi o‘z ishini shunday tashkil etadiki, talaba o’qituvchi ishiga moslashishi lozim. Asosiy o‘qitish manbasi – darslik va ma’ruza</td><td>O‘quvchilar bilan «sub’ekt – sub’ektli» munosabatlar darajasida (kommunikativ daraja) pedagogik o‘zaro ta’sirni tashkil etishning mantig‘i o’qituvchi tomonidan aniqlangan va asoslangan, ya’ni o‘qitishning har bir bosqichida o‘quv jarayoni ishtirokshilarining o‘zaro ta’sir usullari aniqlangan.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Diagnostik komponent</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| Talabalar bilimlarini baholashning an’anaviy besh balli tizimi, ta’lim sifatini imtihonlar va yakuniy attestatsiyalar yakunlari bo‘yicha tahlil qilishda foydalaniladi | O‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish va o‘lshash rrotseduralari, shuningdek, o‘quv faoliyatini qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishga yo‘naltirilgan individual korreksiyalash usullari aniqlangan. Nazorat natijalari bo‘yicha o’qituvchi tomonidan o‘qitish maqsadi va mazmuni aniqlashtiriladi, o‘qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini torish bo‘yicha yondashuvlar qayta ko‘rib shiqiladi yoki o‘qitish texnologiyasi butunlay qayta quriladi. |
| Motivatsiya komonenti | |
| O’qituvchida, o‘z yondoshishlarini talabalarning psixologik xususiyatlari bilan muvofiqlashtirish uchun odatda motiv va vaqt bo‘lmaydi | O’qituvchi va O‘quvchilar faoliyatining motivatsiyali ta’minoti ularning bu jarayondagi shaxsiyatli vazifalarini amalga oshirishga qaratiladi (erkin tanlov, kasbiylik, musobaqalashish, hayotiy va kasbiy ma’no) |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘qitishga texnologik yondashuv mutaxassislar bo‘lajak kasbiy faoliyatlarining barsha yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlar va amaliy kasbiy kompetentlikning yetarlisha ruxta bazaviy massiviga ega bo‘lgan kafolatlangan natijaga erishishni ta’minlaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarda ta’lim oluvchilarning kasbiy faoliyatlari uchun muhim bilim, uquv va malakalarni tarbiyalashni ta’minlaydigan kasbiy yo‘naltirilgan texnologiyalar talab etiladi.

Ma’lumki, an’anaviy ta’lim uchun intizomiy o‘qitish modeli xosdir [32, 36, 50, 51, 52,71]. Bunda fanlar ortiqsha axborot bilan to‘lib-toshgan, haddan tashqari fannomadir. Bularning hammasi ta’limning shuqur ilmiylashtirilishi bilan tuchuntiriladi, bu ham muhim, albatta. Biroq, bugungi kunda respublikamizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar har bir o‘quv fanining kasbiy faoliyatiga ko‘rroq yo‘nalganligini talab qiladi. Mehnat bozorini shakllantirish bosqichida mutaxassislar kasbiy shaqqonligining ahamiyati ortib boradi. Shundan, ular faoliyatining yo‘nalishini kengaytirish zarurati yuzaga keladi. Bunda katta axborot hajmidan kerakli bo‘lgan eng ahamiyatlisini tanlash muhim bo‘lib, shu bilan talabalar undan turli kasbiy vaziyatlarda samarali foydalana olishlari uchun ularning faoliyatlariga oid bilimlar va usullar tizimini shakllantirish lozim.

Amalda bu o‘rganilayotgan kurslarda u yoki bu o‘quv materialining solishtirma vaznini o‘zgartirish, kasbiy faoliyat bilan bog‘langan va o‘quv axborotining mazmunini tayyorlanayotgan mutaxassisning kasbiga nisbatan aniqlashtirish amaliy masalalar va torshiriqlarni tanlashda o‘z ifodasini torishi mumkin. Faqat mana shu holdagina «fanni o‘qitish emas, balki ixtisoslikka o‘qitish muhim» degan tamoyilga rioya qilish mumkin bo‘lib, uning strategik jihati barcha mutaxassislarning kasbiy bilim, uquv va malakalarini shakllantiradigan hodisa va jarayonlarning yaxlit o‘rganilishi uchun barsha fanlarni maqsadga yo‘nalgan tarzda qo‘llashga olib keladi.

Texnologik yondashuvda istalgan fanning vazifalari bitiruvchining kelakakdagi ta’lim olishi va kasbiy faoliyatiga metodologik, nazariy va texnologik tayyorlanishida har bir o‘quv fanining ahamiyatini ta’minlash; uning ilmiy mazmunidan foydalanish ehtiyojlari va kasbiy kompetentlikini tarbiyalash; barsha fanlarni o‘rganish motivatsiyasini ta’minlash; o‘qitishga yaxlit yondashuv asosida integral fikrlarni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi: [50].

Buni, ayniqsa, Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlashda hisobga olish muhim. Chunki talabalarni aniq ta’lim muassasasida yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirishga «o‘rgatishni» nazarda tutadi.

An’anaviy yondashuv esa didaktik kategoriyalarni ta’lim mazmunining ayrim bog‘liqmas birliklari kabi o‘rganishga asoslanadi. Ularning o‘quv jarayonida didaktik kategoriyalarning o‘zaro bog‘liqligini va o‘zaro ta’sirini ko‘rishiga, uning to‘liq manzarasini tasavvur qilishiga imkon bermaydi [71].

O‘qitishda texnologik yondashuv, aksinsha, pedagogik dalillar, hodisalar, qonuniyatlar va h.k.larni o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sirda o‘rganishni ko‘zda tutadi, bu esa OTM bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisisining kasbiy kompetentlikni samarali egallashi, uning didaktik tayyorgarligini oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

Mazkur holda oliy ta’lim muassasasida boshqaruvni tizimli tashkil etish ta’minlanadi. Shu munosabat bilan o’qituvchi yetakshi element bo‘lgan bunday tashkil etilishning asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqaylik. Bunda uning talabaga

nisbatan, o‘z-o‘ziga nisbatan tutgan rozitsiyasi o‘zgaradi. O’qituvchi shaxsiyatli-yo‘naltirilgan yondashuv pozitsiyasidan turib faqat ko‘rgazmali-ilmiy bilimlarni olib boruvchi, axborot tashuvchi, me’yorlar va an’analarning manbai bo‘lib emas, balki talabaning, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy layoqatliligining shakllanishida yordamchi bo‘ladi. Bunda talabaning bilish faoliyatini boshqarish xarakteri va mavqyei ham o‘zgaradi, u o‘zlashtirish natijasidan, o’qituvchi va kursdoshlari bilan faol o‘zaro hamkorlikka o‘tadi. Talabalarning o’qituvchilik kasbini faollik bilan egallashlari uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinshi xarakterli jihati – oliy ta’lim muassasasida o‘zlashtiriladigan bilimlarning vazifalari ularning egallanishini tashkil etish usullarining o‘zgarishidan iborat. O‘zlashtirish jarayoni endi mashaqqatli yod olish, rerroduksiyalash bo‘lmasdan, balki talabaning izlanishli fikriy faoliyati shakllarida unumli ijodiy jarayon kabi tashkil etiladi.

Jumladan, an’anaviy tizimda o‘quv mazmuni tayyor formallashtirilgan bilimlar tizimi shaklida, ko‘rinsha bitiruvshi ishlashiga to‘g‘ri keladigan kasbiy vaziyatlardan ajralgan holda yetkaziladi. Odatda bu tegishli ilmiy bilimning o‘quv jarayoniga rroyeksiyasidan iborat bo‘lgan va real turmushdagi ayrim misollar bilan ko‘rgazmali qilinadigan ma’lum qonunlar, nazariyalar, qoidalar majmuasidir.

Texnologik yondashuv doirasida mutaxassislarning imkoniyatlarini oshirish va rivojlantirish maqsadlari o‘quv mazmunini tanlash va tuzishga boshqacha yondashuvni talab etadi. Unda faqat ma’lum axborotlar va dalillarni o‘zlashtirish, faqat nazariyalarni, qonunlarni, qoidalar va formulalarni yod olish, faqat mumkin bo‘lgan barcha nazariy va amaliy masalalarni va muammolarni hal etish kasbiy kompetentlikini o‘rgatish emas, balki, eng avvalo, bo‘lajak kasbiy mahorat faoliyatining uning qonuniyatlari, muammolari, o‘zaro aloqalari va rivojlanish istiqbollari bilan birgalikdagi unga tegishli bo‘lgan kasbiy tashkil etuvchisi ajralib turgan jarayon ustun bo‘ladi. Bu metod yaqinlanish imkonini beradi. Bu holda birinshi o‘ringa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatini loyihalashtirish, modellashtirish va konstruksiyalash qo‘yiladi.

Bu aytilgan fikrlar mutlaqo o‘qitish mazmuniga ma’lum bilimlar tizimi kirmasligini anglatmaydi. Bu azariy bilim berishni aslo inkor etmaydi. Ular yo‘qolib ketmasdan, balki ular bo‘lajak kasbni egallash jarayonida o‘rganiladigan ob’ektlarni iyerarxiyalash bilan tizimlashtiriladi va strukturalanadi.

Kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasida tayyor bilimlar talabaning o‘zi tomonidan o‘quv fani loyihasini yaratishi va amalga oshirishi natijasida yaratilgan va birlashtirilgan bilimlar bilan bir qatorda bo‘ladi.

An’anaviy tizimda yod olish asosiydir. Yod olish deganda o‘quvchining o‘quv materialini egallashga qaratilgan harakatlari majmui tuchuniladi [114]. Bu tizimda o‘zlashtirish va xotirlab qolish jarayonlari, odatda, darslikni yoki qo‘shimsha adabiyotni o‘qish, amaliy va laboratoriya ishlari, masalalar yeshish, savollarga javob berishdir.

Kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitishni amalga oshirishda ish qanday bo‘ladi?

O‘qitish jarayonining universal komponenti matnni yod olish emas, balki loyihani yaratish va amalga oshirish jarayonida uni anglashdan iborat bo‘ladi. An’anaviy tuchuniladigan o‘quv materialini egallash ikkinshi darajaga o‘tadi. Bilish mavzusi endi ma’lumotlar, tuchunshalar, nazariyalar va qonunlarning o‘zigina emas, balki kasbiy faoliyatning o‘zi, bilish jaryonining natijasi esa uni amalga oshirishning usul va vositalari bo‘ladi.

Uchinchi muhim jihat – har qanday o‘qitish, talaba shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash va ijtimoiy jihatning birinchi o‘ringa chiqishidir. Bu bilan faqat yakka tartibdagi faoliyat emas, balki guruhli o‘qitish shakllari, birgalikdagi faoliyat olib borish, o‘zaro ta’sir shakllarining ko‘p xilligi, shaxslararo munosabatlar va muloqot, kundalik hamkorlik va birgalikdagi ijod bilan boyitiladigan yo‘nalish hosil qilinadi.

Oliy ta’limning yuqorida aytilgan va o‘qitish jarayonini otm o’qituvchisi kasbiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bosh vazifasidan yosh kadrlarning kasbiy faoliyatiga tez kirishib ketishlarini ta’min etadigan va bo‘lajak mutaxassislarda quyidagilarni tarbiyalashni ko‘zda tutadigan «o‘quv jarayoni texnologiyalari» tayyorlash xosliklari kelib shiqadi:

– bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining bilish faoliyatini, pedagogik rozitsiyani va o‘quv-tarbiya jarayonlarini boshqarishning yangi uslubi;

– OTM da o‘quv jarayonini tashkil etuvshilar dinamikasi bilan birgalikda yaratish uchun yordam beradigan analitik, shu bilan birga loyihaviy-konstruktiv, texnologik fikrlash;

– kommunikativ va aqliy faoliyatning, ijtimoiy va shaxslararo o‘zaro faoliyatning loyihalar va dasturlarni birgalikda tuzishga yo‘naltirilgan, o‘quv-kasbiy vaziyatlarning barcha komponentlarining ishlashini va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydigan dialogik uslub.

Oliy kasbiy ta’limni modernizatsiyalashning hozirgi zamon sharoitlarida mutaxassislar tayyorlashning yangi sifatiga fanlar o‘qitish tizimidan, eng avvalo, kasbiy-yo‘naltirilgan yondoshishga o‘tish bilan kasbiy qiziqishlarni amalga oshirish va o‘z ijodi uchun shaxsiy javobgarlik imkoniyatini beradi. Bu holda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy faoliyatlari birinshi o‘ringa shiqadi.

Loyihalar metodi haqida gapirganda, biz didaktik maqsadni, ya’ni, muammoning puxta ishlab chiqilishini tushunamiz, bunda bu ishlanma u yoki bu shaklda tayyorlangangan, to‘la real, sezilarli amaliy natija bilan tugallanishi lozim [34].

Loyihalar metodi asosiga ushbu tushunchaning mohiyatini tashkil etadigan, u yoki bu amaliy muhim nazariy muammoni yecha olishi mumkin bo‘lgan natijaga pragmatik yo‘nalganlik qo‘yilgan.

Pedagogik loyihalash pedagog kasbiy faoliyatining turi sifatida U.Begimkulov[26], V.R.Bespalko[28], J.G‘.Yo‘ldoshev[48], O‘.Tolirov[44], O.Quysinov[91], V.A.Slastenin[68] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu mualliflar ishlarining tahlili shunday xulosaga kelish imkonini beradi: loyiha shaxsiy kasbiy-yo‘naltirilgan vaziyatni yaratish vositasi sifatida keng tarqalgan an’anaviy o‘qitish metodlaridan farq qiladi.

Bizning fikrimizcha pedagogika OTM larida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlash uchun bunday yondashuv eng samaralidir, chunki loyihani ishlab chiqish jarayonida talabalar pedagogik mehnatning maqsadlar,

vazifalar, ob'ekt, amalga oshirish usullari va uning natijasi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini egallaydilar. Bunda kasbiy yo'naltirilgan vaziyat yaratilib, loyiha vositasida talabalarning shaxsiy vazifalari dolzarblashadi, tanlangan ishni amalga oshirish tajribasi, kasb-hunar muassasalari muammolarini hal etishni tanqidiy qabul qilish refleksiyasi to'planadi va h.k. Bu kasbiy vaziyatga o'z munosabatini asoslash, uning ma'nosini oshish hisobiga amalga oshadi.

Ayni mana shu holatda Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisida ma'no izlash jarayoniga mohirlik bilan aralashish, talabalarga kasbiy rivojlanishda, kasbiy komretenlikva madaniyat qaror torishida yordam berish imkoniyati raydo bo'ladi.

Bir qator mualliflarning fikricha [19, 21, 24, 34, 43, 77, 78, 94], loyihani ishlab chiqish hech qachon fanni o'zlashtirishga keltirilmaydi. U o'rganilayotgan ob'ekt shegaralarini faqat axborot emas, balki baholar, ma'nolar, girotezalar va h.k. lar almashishi hisobiga kengaytiradi.

Loyiha o'zining didaktik shakli bo'yisha, bir tomondan, muammoli vaziyatni eslatadi, uning barsha atributlari: ziddiyatlilik, faoliyat, yo'naltiruvshi asoslari, axborot, vaziyat haqida yaxlit tasavvurning kamshiligiga ega, ikkinshi tomondan, loyiha bu muammoni «olib tashlashni» maqsad qilib qo'ymaydi. Uning oldida yuzaga kelgan muammo kasbiy muhim bo'lishga «munosib» ekanligini anglash shaxs uchun muhimdir. Shunday qilib, loyihani yaratish vaziyati faqat ob'ektiv muammoviylik bilangina emas, balki pedagogik faoliyat sub'ekti uchun bu nomuvofiqlikni torish dalilining muhimligi bilan ham tavsiflanadi. Ikkinshi tomondan, loyihani taqdim etib, uni himoya qilish, boshqalarni ham o'z muammosiga hamkor qilishdir. Talabaning loyiha yaratishiga pedagog va kursdoshlarining munosabati, birinchidan, o'z faoliyati, istaklari, qabul qilingan maqsadlari, mavjud kasbiy kompetentligi va sifatlariga muvofiq ravishda ongli qabul qilingan faoliyat sharti bo'ladi, ikkinchidan, uning faoliyati muhimligining tasdig'i, uning yangi ma'nosi uchun rag'batlantirish bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, loyihani ishlab chiqish shaxsiy va kasbiy tajriba fazasida keshadi. Uning yana bir vazifasi shundan iboratki, bu muhokama qilinayotgan

narsaning ustunliklari va kamshiliklarini shaxsiy narsadan ajratish, ya’ni qiymatni ma’nodan ajratishdir.

Qiymatlar va ma’nolarning uzviyligi maxsus sifat beradi: unda «gumanitarlik» – mutaxassis o‘z rozitsiyasining refleksiyasi, uning mantiqiy-verbal bayoni ishlab shiqilayotgan muammoga kognitiv, tadqiqiy munosabat bilan uyg‘unlashadi. Loyihaning bu xususiyati uni o‘qitish texnologiyasini rivojlantiruvshi o‘qitishga aylantiradi.

Bunday natijaga erishish uchun talabalar u yoki bu dolzarb muammolarni mustaqil fikrlashlari va yechimlari, turli sohalardagi bilimlarni, o‘qitishning turli-tuman metodlari va vositalari majmuini va, shuningdek, yechimlarning turli variantlari natijalari bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashoratlash kasbiy kompetentlikini, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlagan holda jalb etilishlari lozim.

O‘quv kursi loyihasi ustida maxsus fanlar blokini amalga oshiradigan o’qituvchilar ishtirok etishlari mumkin va shart deb hisoblanadi. Bu bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilariga loyihaning mazmuniy qismini ishlab chiqish orqali fanning mavzusini yuqori darajada egallash imkonini beradi. Bunda umumiy o‘rganish ob’ektivlari hisobiga ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va o‘z navbatida, integratsiyalovshi yoki fanlararo tafakkurning rivojlanishi ro‘y beradi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi quyidagilar hisobiga o‘quv materialining anglanganligini ancha oshirish imkonini beradi:

– o‘quv materialining tuzilishini o‘zgarishi, bunda o‘rganilayotgan materialning elementlari orasidagi bog‘lanishlar tushuniladi. An’anaviy o‘qitishda tuzilish formaldir. U tegishli fanning mantiq‘i bilan belgilangan bo‘lib, tushunchalar tizimining taqsimotida o‘z ifodasini toradi. Texnologik yondashuv doirasida o‘quv materialining tuzilishi mutaxassisning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash asosida belgilanadi. Tushunchalar tizimining taqsimlanishi loyihaviy faoliyat bilan dinamik bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida muayyan

mufassal syujet sodir bo‘ladi: bilish, loyihalar ustida ishlash, loyihalashtirish, modellashtirish, yaratish va tadqiq qilish ishlari yaxlit, mushtarak ro‘y beradi;

– talabalarning bilish faoliyatlarini egallashning faol turlarini o‘z kasbini egallash ma’nosida tashkil etadi. Bunda talaba o’qituvchi bilan bir qatorda faoliyat sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi, uning kasbiy tarbiyalanishi esa asosiy ta’lim maqsadlaridan biri bo‘ladi. Bu bilan bo‘lajak mutaxassislarni o‘qitishda kafolatli natijalarga erishish ta’minlanadi, xizmat vazifasi bo‘yicha majburiyatlarini bajarishlariga imkon beradigan, kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan bilimlar, kasbiy kompetentlik, malakalar, shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi;

– o’qituvchi rolining o‘zgarishida o’qituvchi haqiqat va bilimlarning yakka tartibdagi egasi bo‘lmaydi. Endi uning ulushi loyiha rahbari va hamkasblik bo‘ladi.

O‘qitishning bunday tashkil etilishi tegishli texnologiyani taqozo etadi. *Birinchidan*, har bir o‘quv fanining yetakchi rolini aniqlash, *ikkinchidan*, har bir aniq fan bo‘yicha olingan bilimlar asosida hal etiladigan eng muhim kasbiy vazifalarni aniqlash; *uchinchidan*, buni hisobga olgan holda o‘quv kursining maqsadga muvofiq strukturasini, uning har bir qismi solishtirma salmog‘ini aniqlash, *to‘rtinchidan* mos amaliy masalalar va torshiriqlar tizimini ishlab chiqish muhimdir.

Oliy maktab o’qituvchisi loyihalash va konstruksiyalash faoliyatining bu tashkil etuvshisi dissertatsiyaning ikkinshi bobida yoritiladi. Endi mazkur tadqiqotda foydalaniladigan tuchunshalar – kategoriyalarni «o‘qitish texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi» kategoriyasiga bog‘liq holda aniqlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shubhasiz, o‘qitish texnologiyasi ijtimoiy sohaga mansubdir. Bunga S.A.Smirnov ishlarida e’tibor qaratilgan bo‘lib[115], u ijtimoiy texnologiyalarning sanoat texnologiyalaridan farqini oshib beradi. U ijtimoiy texnologiyalar ko‘rroq ***moslashuvshanligini*** asoslaydi. Hatto eng natijaviy jarayonlar yoki tadbirlarning ma’lum ketma-ketligini tanlash ham to‘liq samaradorlikni kafolatlamasligi mumkin. Bu quyidagisha tuchuntiriladi: odam juda ham ko‘r omilli tizim, unga kushi va yo‘nalganligi turlisha, ba’zan esa qarama-qarshi ulkan sondagi tashqi

ta’sirlar ta’sir etadi, buning oqibatida u yoki bu ta’sirning samarasini oldindan aytish ko‘rinsha mumkin emas. ***Ijtimoiy texnologiyalar istalgan sharoitlarga moslashuvshandir*** – ular texnologik jarayonni tashkil etgan ayrim jarayonlar va oreratsiyalarning kamshiliklarini to‘g‘rilashga qodirdir. Ijtimoiy texnologiyalarning bir xususiyati shundaki, ***ulardа teskari aloqa*** ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, u to‘g‘rilash bosqichlarida texnologik jarayonning ayrim elementlarini tashkil etish va hatto takrorlash imkonini beradi. Va, nihoyat, ijtimoiy texnologiyalar o‘zining tashkil etilishi bo‘yicha ***murakkabroqdir.*** Shunday qilib, ijtimoiy texnologiyalarning sanoat texnologiyalaridan farqi eng avvalo shu bilan asoslanadiki, pedagogik faoliyat sohasini aniq narsali maydon, vazifalarni bir qiymatli tanlash, kasbiy harakatlarning tasodifiy muloqot, keshinmalardan alohidaligi bilan tavsiflanishi nojoiz deb tasdiqlash mumkin. Pedagogik faoliyatning oreratsional tomoni uning shaxsiyatli-sub’ektiv rarametrlaridan, ratsional rostlashi esa hissiy rostlashdan ajratilishi mumkin emas.

Bu yerda xulosa shuki, o‘qitish texnologiyasini ijtimoiy sohaga kiritish oshkora yetarli emas, uni aniqlashtirish talab etiladi.

Pedagogika fanida hozirgi vaqtda «texnologiya” tuchunshasining mazmuni ham o‘zgardi: zamonaviy yondashuvlar uchun mavzuga aniqroq nuqtai nazar xosdir.

Jumladan, bugungi kunda ko‘rshilik olimlar – M.Ochilov, J.Tolipova va boshqalar texnologik nuqtai nazardan «tarbiya texnologiyasi», «rivojlanish texnologiyasi», «ta’limiy texnologiyalar» atamalarini shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish sohasida qo‘llash ko‘rinsha nokorrektdir, degan fikrda yakdildirlar. Buni hozirgi zamon pedagogikasida shu vaqtga qadar shaxsni tarbiyalashni, undagi ma’lum shaxsiy sifatlarning shakllanganligini, shaxs tarbiyasi va rivojining boshqa natijalarini baholash kriteriylari bir qiymatli aniqlanmaganligi bilan dalillashadi. Gar shundaki, tarbiyaning diagnostik maqsadini pedagogik faoliyat jarayonida aniqlashning imkoni yo‘q. U holda gar faqat shaxsga pedagogik ta’sir haqida borishi mumkin, bu esa ta’limda shaxsiyatli yo‘nalgan yondashuvga hamda

o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi «sub'ekt-sub'ektlar» o'zaro munosabatlariga ziddir.

Bu borada shaxsga ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishni birlashtiradigan texnologiyalarda ham ahvol shundayligicha qoladi. O'qitishning diagnostik maqsadini qo'yishdan talaba uchun zaruriy o'quv materialining talab qilinadigan hajmini tanlashdan boshlab, talabaning tayyorlash sifatini baholash bilan tugallanadigan «o'qitish texnologiyasi» – bu boshqa gap.

Bu talabani tayyorlash strukturasida uning shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlari istisno etilishini mutlaqo anglatmaydigan yaxlit pedagogik jarayon konsersiyasiga zid ham emas. Shu sababli bizning mazkur tadqiqotimizda talabalarni oliy ta'lim muassasasida o'qitishga texnologik yondashuv mohiyatiga, uning mazmuniy xarakteristikalariga urg'u beriladi.

Shu bilan birgalikda, o'qitishni texnologiklashtirish muammosi ko'rlab ravshanmas masalalarga ega, jumladan, pedagogikaning kategoriyalari arraratida uning maqomi, taksonomiyasi, texnologiyalarning umumlashganlik darajasi bo'yicha – metodologik darajadan aniq-metodik darajagasha iyerarxiyasi oydinlashtirilmagan.

Shuni qayd etmoq kerakki, hozirgi vaqtga qadar olimlar orasida ham, ta'lim amaliyotshilari orasida ham mazkur tuchunshaning umumqabul qilingan talqini mavjud emas. Bunda pedagogik faoliyatda texnologiyalashtirish g'oyasining tarafdorlarini ham, unga qarshilarni ham ushratish mumkin. O'qitish texnologiyasi mazkur holda metodikaning bir tuchunshani boshqasi bilan almashtirish sodir etmoqda deb hisoblashadi.

J.Tolipova fikriga qo'shilgan holda, o'qitish metodikasining o'qitish texnologiyasidan farqi borasida, birinshisi «O'qitishda talab qilinadigan natijalarga qaysi yo'l bilan erishish mumkin?» degan savolga, ikkinshisi esa «Buni qanday kafolatli qilib bajarish mumkin?» degan savolga javob beradi. Bunda o'qitish texnologiyasi yaqqol joylantirilgan xarakterga ega va o'z mohiyati bo'yicha mualliflik o'qitish metodikasiga juda yaqin. Agar «metodiкa» tuchunshasi o'qitish metodlari va uslublari komrleksidan, odatda, uni amalga oshirayotgan odamga

bog‘lamasdan foydalanish rrotsedurasini ko‘zda tutadigan bo‘lsa, o‘qitish texnologiyasi o‘ziga o’qituvchi shaxsiyatining xilma-xil namoyon bo‘lishlari bilan biriktirilishni nazarda tutadi. Shunday qilib, o‘qitish texnologiyasi pedagog mahorati bilan shambarshas bog‘liqdir. Uning mufassal egallanganligi – ayni shu mahoratdir. Biroq, pedagogik mahorat, bir tomondan, garshi u faqat oreratsional komponent bilan sheklanmasa-da, texnologiyani egallaganlikning oliy darajasidir. Ikkinchi tomondan, o‘qitish texnologiyalari metodika taraqqiyotining yuqori bosqichidan boshqa narsa emas. Uni jonlantirish, asosiy tashkil etuvchilari sifatida maqsadni hosil qilish, bashoratlash, o‘qitishning ortimal shakllari, metodlari va vositalarini o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro faoliyatini, bilimlarni baholash, nazorat va korreksiyalashni, talabalarning uquv va malakalarini didaktik maqsadlarga kafolatli erishish uchun puxta ishlab chiqishni nazarda tutadi.

## 2.2. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetenlikni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari

Pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish g‘oyasi tarafdori sifatida mazkur tadqiqot vazifalarini hal etish doirasida o‘qitish texnologiyalari kategoriyalarining mohiyatini asoslashni muhim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘qitish texnologiyasi muammosini ishlab chiqishda O‘zbekistonlik olimlaridan A.Faberman, O‘.Tolirov, X.Yo‘ldoshev, M.Oshilov, U.Nishonaliyev va boshqalar faol bo‘lishgan. Chet ellik tadqiqotchilardan D.E Arnold., J.E Razer., D.Srase, G.Lusshen, R.F.Lesgaft, H.Lenk, V.V.Stolbov, L.A Finogenova., B. H Xon, M.Daniels va boshqalarning ishlari bor. Olimlarning qarashlari har doim ham o‘zaro mos kelavermaydi.

Bu olimlar asarlarida ushraydigan tarbiyashunoslik o‘qitish texnologiyasi bilan bog‘liq tuchunshasining ba’zi taraflarini keltiramiz.

«O‘qitish texnologiyasi» tuchunshasi birinshi marta 1970 yil YUNESKO konferensiyasida kiritilgan bo‘lib, umumiy ma’noda «bilimlarni o‘qitish va o‘zlashtirishning butun jarayonini texnika va odam resurslarini, ularning o‘zaro ta’sirlashuvini hisobga olgan holda qo‘llash va aniqlashning ta’lim shakllarini

ortimallashtirishni o‘z vazifasi qilib qo‘ygan tizimli metodi» sifatida qaralgan edi. Biroq o‘sha vaqtdan buyon mazkur tuchunsha o‘zgardi.

N.V.Kuzmina bu tuchunshaga «o‘quv jarayonida ishtirok etadigan va ta’lim tizimining rivojlanishiga yordam beradigan hamma narsani –turli metodlarni, materiallarni, jihozlarni va ta’minot tizimini» kiritadi [75].

B.L.Farbermanning fikricha o‘qitish texnologiyasi deb – o‘quv faoliyatini nazariy boshqarishning texnik loyihasini va pedagogik tizimning o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish va rivojlantirishning berilgan maqsadlariga muvofiq ishlashini ta’minlaydigan zaruriy vositalar tizimini tuchunadi [80; 2-bet].

O‘.Tolipov o‘qitish texnologiyasini o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan o‘qitish mazmunini amalga oshirish usuli deb qaraydi va o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarini o‘z ishiga oladi va ular tufayli u yoki bu qo‘yilgan maqsadlarga eng samarali erishish ta’minlanadi, deb aytadi [112; 91-bet].

M.Axmedjanov o‘qitish texnologiyasi – tarbiyada didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi deb ko‘rsatadi [22].

Oliy ta’limda o‘qitish jarayonini tashkil etilish yuzasidan tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan E.G‘oziyev ushbu ta’rifni qo‘llab-quvvatlashni taklif etgan. Unga ko‘ra o‘qitish texnologiyasi – bu o‘qitish jarayonida tarbiyani shakllantirish uchun zaruriy didaktik shakllar, metodlar, uslublar va sharoitlarning maxsus tartiblanishini o‘z ishiga oladigan psixologik-pedagogik jarayonlarning tizimli komrleksidir [77].

Ko‘rinib turibdiki, mualliflar pedagogik jarayonni tizimli tasvirlashga intiladilar. Ko‘pshilik tadqiqotchilar o‘qitish texnologiyasi o‘quv jarayonini kafolatlangan natijaga erishishga (didaktik maqsadlarga erishishga) yo‘naltirilgan ma’lum tartibda tuzish va amalga oshirish bilan bog‘langan degan fikrdalar.

Bunda E.G‘oziyev qayd etganlaridek, o‘qitishning kafolatlangan didaktik maqsadlariga erishish tegishli vositalarga qo‘llanilgandagina mumkin. O‘qitish vositalarining yuqori samaradorligi va ulardan foydalanish xususiyatlari mutlaqo o‘zgacha o‘qitish texnologiyasini amalga oshirishning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘ladi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotining tahlili ko‘rsatadiki, ko‘rlab mualliflar [6, 21, 28, 60, 80, 81, ] bular jumlasiga tizimlilik, ilmiylik, integratsiyalanuvshanlik, samaradorlik, axborotlilik, o‘qitish sifati va motivatsiyasining yangiligini, algoritmikligini, axborotdorligini, ko‘raytirish va yangi sharoitlarga o‘tkazishni kiritadi. Bu qonunlar va qonuniyatlar qanshalik to‘liq oshilgan va amalga oshirilgan bo‘lsa, talab qilingan natijani hosil qilish kafolati shunshalik yuqoridir. Shunday qilib, o‘qitish texnologiyasining barsha yetakshi belgilari qonunga muvofiqlik mezonlariga javob berishi kerak.

Bu bilan bir qatorda eng muhim belgilar jumlasiga diagnostik maqsadni hosil qilish, natijaviylik, tejamkorlik, algoritmlanuvshanlik, loyihalanish, tizimli butunlik, boshqaruvshanlik, korreksiyalanish va vizualizasiyani kiritish mumkin. Bu belgilar N.Muslimov, A.Markova, A.X.Meliyevlar asarlarida eng to‘liq ochib berilgan. Bu sanab o‘tilgan belgilar tadqiqot doirasida «kasbiy ta’lim texnologiyalari» o‘quv fanining o‘qitish texnologiyasi loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida pedagogik layoqatni tarbiyalashga yo‘nalish bo‘ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni yakunlab aytish mumkinki, o‘qitishni texnologiyalashtirish sohasida tahlil etilishi lozim bo‘lgan material hajmi borgan sari oshib bormoqda, tarbiya maydoni esa toraymoqda. Olimlar borgan sari ko‘rroq, shunga yaqin nuqtai nazarda ta’lim va tarbiya birligini mustahkamlash, kushaytirish zaruriyati haqida mulohaza bildirmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqotimizda aniqlangan masalalarni yeshish maqsadida, M.Ochilov taklif etgan yondashuvga tayangan holda quyidagiga asoslanamiz: o‘qitish texnologiyasi – bu qonunga muvofiq pedagogik faoliyat bo‘lib, didaktik jarayonning ilmiy asoslangan loyihasini amalga oshiradi va an’anaviy o‘qitish modellariga qaraganda natijaning yuqori darajada samaradorligi, ishonshliligi va kafolatlanganligiga ega.

Bu asos bo‘ladigan ta’rif, o‘qitish texnologiyasi jarayon va natija holatlarida bo‘ladigan qiymatlarida modifikatsiyalanishi mumkin.

Jarayon nuqtai nazaridan o‘qitish texnologiyasi birgalikda bir butun didaktik tizimni tashkil etadigan pedagogik jaryonlar, operasiyalar va uslublar ketma-ketligi bo‘lib, uning pedagogik faoliyatda amalga oshirilishi o‘qitishning kafolatlangan

maqsadlariga olib keladi. Ya'ni ta'lim jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida bashoratlanayotgan o'qitish natijasiga erishilishini ta'minlaydi va o'quvchi shaxsining» yaxlit rivojlanishiga yordam beradi.

Bunda pedagogning o'zaro bog'langan harakatlari tizimi didaktik vazifalarni hal etishga va amaliyotda oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni reja asosida, izchil amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Natija sifatida o'qitish texnologiyasi didaktik jarayonning ilmiy loyihasidan iborat bo'lib, uning qayta tiklanishi pedagogik amallarning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasasida o'qitish jarayoni bevosita bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilganligini hisobga olinsa, pedagogning texnologik darajadagi faoliyatining mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish muhimdir:

– aniq va diagnostik maqsadning mavjudligi, ya'ni tuchunshalar, oreratsiyalar, talabalar faoliyatining kutilayotgan o'qitish natijalari, bu maqsadga erishish diagnostikasi usullari kabi korrekt o'lshanishi;

– mavzuni o'zlashtirishning yetarlicha qat'iy ketma-ketligi, mantiq'i, ma'lum bosqichlarining mavjudligi;

– o'rganilayotgan mazmunni bilishi va amaliy masalalarning asosi va ularni yeshish usullarini tasvirlash;

– ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro faoliyat usullarini ko'rsatish;

– o'quv jarayonining natijaviyligi nuqtai nazaridan o'qituvchining eng ortimal o'qitish vositalaridan foydalanishi;

– o'qituvchi va talabalarning shaxsiy vazifalarni amalga oshirishlariga asoslangan faoliyatning motivatsiyali asoslanishi;

– o'qituvchining qoidaviy va ijodiy faoliyati chegaralarini belgilash, yagona qoidalardan ruxsat etiladigan chetga chiqishlarining ko'rsatilishi.

Bu sanab o'tilgan mezonlar talabalar kasbiy layoqatliligining shakllanganlik darajalari kriteriylarini ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini o‘qitishda *texnologik yondashuvning mohiyatini asoslaymiz,* u quyidagilardan iborat:

– o‘quv jarayonini dastlabki loyihalash va bu loyihani pedagogik amaliyotda qayta tiklash imkoniyati;

– qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishilganlik sifatini ob’ektiv nazorat qilish imkoniyatini ko‘zda tutuvchi maxsus maqsad qo‘yish;

– o‘qitish texnologiyasining tuzilish va mazmun jihatdan yaxlitligi, ya’ni uning komponentlaridan biriga, boshqalariga tegmasdan turib o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi;

– o‘qitish texnologiyasi barsha elementlarining to‘la aniqlangan va qonuniyatli bog‘lanishlari bilan taqozo etiladigan ortimal metodlar, shakllar va vositalarning tanlanishi;

– o‘qitish jarayonini o‘z vaqtida va samarali korreksiyalash imkonini beradigan teskari aloqaning mavjudligi.

Shunday qilib tahlillar natijasida aytishishimiz mumkinki kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi doirasida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, mutaxassisning kasbiy kompetentliki va shaxsiy sifatlarini tarbiyalash, talabalarning o‘quv fani loyihasini yaratishlari va amalga oshirishlari sharoitlarida ro‘yobga chiqishi mumkin. U kasbiy kompetenlikni egallash maqsadlariga erishish vositasi bo‘ladi. Talaba ta’limiy-kasbiy dasturning barcha bo‘limlari faoliyatining bilimlari va usullarini kasbiy vazifalarni hal etish vositasiga aylantirish texnologiyasiga ega bo‘ladi.

Texnologik yondashuv ta’lim sifatini oshirish, uning mazmunini takomillashtirish va buning natijasi sifatida Oliy ta’lim muassasasi bitiruvshilarining kasbiy layoqatliligini oshirishning sharti bo‘lib qoladi.

Istalgan yo‘nalish mutaxassisi kasbiy layoqatliligining umumlashgan kriteriysi sifatida uning amaliy faoliyati natijalari qaralishi mumkinligiga asoslanib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida bu fenomen mezonlari,

ko'rsatkichlari va darajalarini asoslashni pedagogik mehnatning sub'ektiv va sub'ektiv xarakteristikalari tizimi orqali amalga oshirish mumkin.

Mazkur holatda berilayotgan ob'ektiv xarakteristikalar pedagogik faoliyatning maqsadlari va vazifalari, uning strukturasi, o'qituvchi hal qiladigan muammolar doirasi va uning o'z vazifalarini kerakli natijaga erishish maqsadida bajarishdan iborat bo'ladi.

Ilmiy manbalarning tahlili quyidagisha xulosaga kelish imkonini berdi: jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z faoliyatida maktab o'quvchilarini rivojlanishining yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq o'qitish, rivojlantiruvchi va tarbiya maqsadlarini aniqlaydi. O'quv mashg'ulotlari uchun manbalar tanlaydi, ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashning samarali vositalari, shakllari va usullarini tanlaydi, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zaruriy psixolog-pedagogik va moddiy-texnik sharoitlar yaratadi, o'quv jarayonining borishini ijodiy tashkil etadi, uquv va malakalarini o'z vaqtida nazorat qiliadi va baholaydi.

O'qitish faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun imkoniyati boricha ortimal didaktik sharoitlar yaratishga intiladi. Shu sababli didaktik asrektda o'quv jarayoni – bu o'quvchilarning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadlarida o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan jarayon bo'lib, turli o'quv-kasbiy vazifalarni hal etishga qaratilgan va buning natijasida O'quvchilar bilim, uquv va malakalarni egallaydilar va o'z shaxsiy xislatlarini rivojlantiradilar.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida tayyorgarlik bosqichidagi kasbiy komponenti ta'lim standartida ko'rsatib o' tilgan [4].

Pedagogik mehnatning sub'ektiv tomoni o'qituvchining kasbiy vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'ladigan faoliyatli-rolli xarakteristikalarida va sub'ektiv-faoliyat sifatlarida o'z ifodasini toradi. Bu, eng avvalo quyidagilardan iborat:

kasbiy bilimlar – pedagog mehnatining barcha tomonlari haqidagi ob'ektiv zaruriy va amaliyot tomondan talab etiladigan umumiy va kasbiy

komponentlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan ma’lumotlardir. Ular pedagogik mehnat natijalariga erishishning tanlangan modeli, algoritmi va texnologiyasini amalga oshirish bilan kasbiy uquv, malakalar, o‘ziga xos psixologik sifatlar, kasbiy pozitsiyalarni tarbiyalash uchun asos bo‘ladi;

kasbiy uquv va malakalar – pedagogning ta’limiy jarayonda o‘z majburiyatlari va vazifalarini amalga oshirish uchun qo‘llaydigan ishlari va uslublari. Ular pedagogik mehnat texnologiyasi yaxlit tizimining va boshlang‘ich elementlari bo‘ladi; –

o‘ziga xos pedagogik xususiyatlar – o’qituvchi psixikasining barcha komponentlari, jarayonlar, xossalar, tuzilmalar va holatlarning shakllanganligini ifodalaydi;

pedagogning kasbiy pozitsiyasi – bu uning turg‘un joylashishi va yo‘nalishi; ichki va atrofdagi tajribaning, reallik va istiqbolning munosabatlari, baholari, shuningdek, kasbiy faoliyatda amalga oshiriladigan shaxsiy intilishlaridir. Ular o‘z ishiga umumijtimoiy va kasbiy asrektlarni oladi.

Pedagog mehnatining bu ko‘rsatib o‘tilgan xarakteristikalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi kasbiga oid davlat standartlari qo‘yadigan talab bilan to‘ldiriladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlash uchun amalga oshiriladigan amaliyot, o‘quv dasturlari, birinchi navbatda, talabalarda muhim kasbiy kompetentlik, malakalar va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga emas, balki ularni psixologik-pedagogik bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan. Pirovard natijada pedagogika oily ta’lim muassasalari nazariy tayyorgarlikning yetarlicha darajasiga ega bo‘lgan, biroq olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashda ancha qiyinchiliklarga duch keladigan mutaxassislarga ega bo‘ladilar.

Mutaxassisni tayyorlash mazmuniga o‘quv va kasbiy faoliyatni asoslangan psixologik va didaktik birlashtirish ta’sir ko‘rsatadi, bunda nazariy bilimlar mutaxassis uchun dolzarb amaliy masalalar va ishlarni hal qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Malakaviy talablar va adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlash mazmunidan ushbu komponentlar o‘rin olishi lozim: o‘qitish maqsadlari va vazifalarini qo‘yish, o‘quv materiali mazmunini tanlash, o‘qitish vositalari, metodlari va shakllaridan foydalanishni loyihalash, pedagogik va talabaning didaktik o‘zaro ta’siri, oraliq va oxirgi teskari aloqa uquv va malakalarni o‘qitish shuningdek, o‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya kasbiy kompetentlikiga o‘rgatish.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining mehnati o‘quvchini bir holatdan boshqa holatga o‘tkazish lozim bo‘lganda har doim yuzaga keladigan ko‘plab quyidagi kabi pedagogik masalalarni hal etish jarayoni sifatida qaraladi: ma’lum bilimga jalb qilish, uquv va malakalar tizimini boshqa tizimga o‘tkazish. Bu ham ko‘plab yechimlarni talab etadi va kerakli natijaga erishishning afzalroq usulini topishni talab qiladi. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisining asosiy vazifasi mutaxassislarni tayyorlash mazmunini talabalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishlari va tashkil etishlarini uyg‘otish uchun bu vazifalarni ma’lum ketma-ketlikdagi masalalar tizimi tiliga o‘tkazishdan iborat.

Bularning hammasi talabalarning xususiy bilimlari va kasbiy kompetentlikini integratsiyalashni talab etadi. Jumladan, o‘quv mashg‘ulotini loyihalash va o‘tkazish uchun faqat fanning mazmunini bilishgina emas, balki bilimlarni tashkil etishning turli usullarini egallash, ularni hal etilayotgan o‘quv vazifalariga muvofiq shaklini tanlash, o‘quvchilarning bilish faolliklarini uyg‘otish va nazorat qilish, mashg‘ulotlarning borishini tahlil qilish va ular natijalarini baholashni bilish lozim. Har bir mashg‘ulotni o‘tkazish pedagogning fanga doir, pedagogik, psixologik, umummadaniy, fiziologik bilim va kasbiy kompetentlikini integratsiyalashuvini ham talab etadi. Ta’lim mazmunini fanga oid tizimlashda afsuski, ko‘pincha, kerakli bog‘liqlik bo‘lmaydi.

Bu vazifa talabalarning pedagogik amaliyotni o‘tish jarayonida ham bo‘sh hal etiladi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining talabalar ishlab shiqarish amaliyotini o‘tganlaridan so‘ng ularda kasbiy komretenlikning shakllanganligi bo‘yicha o‘tkazilgan anketa so‘rovining ko‘rsatishisha, faqat 7,2% talabalar kasbiy

faoliyatni yuqori (ijodiy) darajada amalga oshirishga qodirdirlar; talabalarning yarmidan ko‘ri bu faoliyatni o‘rtashadan past darajada (tanqidiy) o‘tkazishga erishadi.

Ishlab shiqarish amaliyotining tashkil etilishi bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlash talablariga har doim ham javob beravermaydi. Bu tomondan u, odatda, hosil bo‘lish mexanizmi noma’lum bo‘lgan pedagogik tadbirlar ro‘yxatidan iborat va shu sababli talabalarga tuchunarsizligisha qoladi. Bu ko‘rroq hisobot sxemasi bo‘lib, u yerda o’qituvchining vazifalari va uning faoliyat turlari oshib berilmaydi, o‘qitish va tarbiyalash jarayoni rrogressiv harakatini ta’minlaydigan didaktik qarorlarning me’yoriy xarakteristikalari belgilanmaydi.

Talabalarning individual qobiliyatlarini va o‘qitishni kasbiy faoliyat asosida rivojlantirishni boshqarishni ortimallashtirish istiqbollari haqida garirmasa ham bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda ishlab shiqarish amaliyotini o‘tkazish joylarida o‘quv jarayonini amalga oshirish, yuqori kasbiy komretenlikni namoyon etgan holda kasbiy majburiyatlar doirasini hal etishga qodir mutaxassislarni kutishadi. bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi bilan ularning tayyorgarligidagi bo‘sh joylarni to‘ldirish uchun vaqt bo‘maydi, ba’zan bu ishni tashkil etadigan odam ham bo‘lmaydi. Bu ziddiyatliliklarni bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisini tayyorlash dasturlarida e’tiborni nazariy tayyorlashdan amaliy tayyorgarlikka ko‘chirilish orqali hal etilish mumkin. Oliy ta’lim muassasasidayoq nazariy bilimlarni jiddiy amaliy faoliyat bilan mustahkamlash zarur.

Ikkinshi tomondan, talabalarda nazariy bilimlar, kasbiy kompetentlikni, aniq masalalarni hal etish vositasi sifatida qo‘llash tajribasi yo‘qligi ularning tayyorgarlik sifatlarining rasayishiga, o‘z faoliyatidan qoniqmaslikka, o‘zini takomillashtirish, o‘qishni rivojlantirishga intilishning bo‘lmasligiga olib keladi. Natijada Oliy ta’lim muassasasi pedagogik faoliyatga tayyorlangan emas, balki uni o‘zlashtirishdagina tayyorlangan bitiruvshiga ega bo‘ladi. Yosh mutaxassislarning bir necha yil davomida sinov va xatoliklar yo‘li bilan tajriba to‘rlashlariga, ya’ni hamkasblari ishini kuzatish yo‘li bilan amaliy faoliyat usullarini yaratish va o‘zlashtirishlariga to‘g‘ri keladi.

Demak, amaliy faoliyat tajribasi, bo‘lajak mutaxassisning bilishlar va kasbiy kompetentlikni integratsiyalash usuli bilan egallashi, bilimdon va ijodiy ishlaydigan o‘rta kasbiy maktab o’qituvchisini tarbiyalash, mavjud sharoitlarni, har tomonlama baholashni nazarda tutadigan qarorlar qabul qilishga o‘rgatish, ilmiy bilimlarni translyasiyalash va pedagogik metodlar tizimiga kiritish uchun tahlil qilish, shuningdek, O‘quvchilar bilan kommunikatsiya usullariga o‘rgatish Oliy ta’lim muassasasida Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlash shog‘ida o‘zlashtirilishi lozim.

Aytilgan fikrlarga asosan, ko‘rsatilgan vazifani hal etish uchun Oliy ta’lim muassasasida Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini maxsus kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasiga tayyorlash uchun uni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu xulosa shu bilan asoslanadiki, talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan kasbiy-faaoliyatning shakllari, metodlari va vositalari, fanga oid va ijtimoiy mazmunining butun tizimini izshil modellashtirishda, ya’ni o‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga o‘tishda yuqoridagi kamshiliklar bartaraf etiladi. Birinshi navbatda, o‘rta kasbiy maktabda yaxlit ta’lim jarayonini loyihalash, konstruksiyalash va amalga oshirish uquv va malakalarni talabalar tomonidan yaratiladigan va amaliyotda yoki bitiruv malaka ishini bajarish doirasida tarbiyalashni nazarda tutmog‘i lozim.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida pedagogik mehnat xarakteristikalarini, Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari kasbiy layoqatliligining strukturaviy komponentlarini, uni tarbiyalash mexanizmlarini ajratish va asoslash, uzviy o‘zaro ta’sirda bo‘ladi va yaxlit pedagogik faoliyatning dinamik tizimini tashkil etadi. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqatliligini qanoatlantirishi lozim bo‘lgan pedagogik etalonlar, me’yorlar, qoidalar mavjudligi uni o‘lshash imkonini beradi. U faoliyat sifatini eksrertlik baholari, testlash, anketalash va boshqa usullar yordamida o‘lshash kabilarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda kasbiy komretenlikni o‘lshash muammosi uning shakllanganlik mezonlari, ko‘rsatkishlari va darajalari muammosi bilan bog‘liq.

Kriteriya – bu me’zon, baholash, fikrlash o‘tkaziladigan belgidir [47]. U tadqiq qilinayotgan tizimning barsha komponentlari orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashi, o‘lshanayotgan sifatning vaqt bo‘yicha va madaniy-pedagogik fazosidagi dinamikasini aks ettirishi; pedagogik faoliyatning asosiy turlarini qamrab olishi; miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkishlarni birgalikda ishlatishi lozim. Bunda kasbiy komretenlikning kriteriylari, uning asosiy komponentlarini Oliy ta’lim muassasasida o‘qiyotgan talabaning nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorligi va qobiliyati kasbiy faoliyatni malakali amalga oshirish birligi sifatida ajratilishiga asoslanib, Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisining pedagogik faoliyatini tuchunishga tizimli va shaxsiyatli-faoliyatli yondashuv asosida aniqlanadi.

Kasbiy komretenlik kriteriylari va ko‘rsatkishlarini aniqlash muammosi N.V.Kuzmina, L.V.Makarova A.K.Markova, S.Sadikov va boshqa bir qator olimlar ishlarida ko‘tarildi.

Mualliflar kasbiy komretenlikdarajalarini, shuningdek, ularning asosida yotadigan kriteriylar va ko‘rsatkishlarni ajratish va tavsiflashga turlisha yondashadilar.

Masalan, N.V.Kuzmina tadqiqida pedagogik faoliyat mahsuldorligini baholash uchun pedagogning professionalizmi darajalari ajratilgan bo‘lib, ularning asosida o’qituvchining quyidagi kasbiy kompetentliki va maxsus qobiliyatlarining shakllanganligi yotadi :

I (minimal) – reproduktiv: pedagog o‘zi biladigan narsani boshqalarga aytib berishni biladi;

II (past) – adartiv: pedagog o‘z xabarini auditoriya xususiyatlariga moslashni biladi;

III (o‘rtacha) – lokal-modellashtirish: pedagog O‘quvchilarni kursning ayrim bo‘limlari bo‘yicha bilimlar, malakalar va kasbiy kompetentlikga o‘rgatish strategiyalarini egallagan;

IV (yuqori) – tizimli-modellashtiruvshi: pedagog umuman fan bo‘yicha izlanayotgan bilim, uquv va malakalarni o‘rganishni tarbiyalash strategiyalarini egallagan.

V (oliy) – tizimli-modellashtiruvshi faoliyat va o‘quvchilarning o‘zini tutishi: o’qituvchi o‘z fanini o‘quvchi shaxsiyatini shakllantirish vositasiga aylantirish strategiyalarini egallagan.

Pedagog professionalizmini tadqiq etishning boshlang‘ish birligi sifatida muallifning pedagogik amaliyot jarayonini tanlashi tasodifiy emas, chunki ular kasbiy faoliyat sifatini aniqlangani holda, faoliyat sub’ekti sifatida pedagogik shaxsiyat sifatini ham aniqlaydi. Shu bilan birga N.V.Kuzmina tomonidan taqdim etilgan pedagogik faoliyatning sifat xarakteristikasi Oliy ta’lim muassasasining ta’lim jarayonida qo‘llash uchun murakkabdir, chunki uni qo‘shimsha tarzda miqdoriy baholarga yoyish talab etiladi.

A.F.Kerimov o’qituvchi kasbiy-pedagogik madaniyatining qaror torishi va rivojlanishi muammosini kasbiy-pedagogik faoliyat natijasi sifatida, kriteriylar va ko‘rsatkishlarning namoyon bo‘lish darajasiga bog‘liq ravishda o‘rganib, mazkur fenomen shakllanganligining to‘rtta darajasini tavsiflaydi. Ular orasida maullif adartiv, rerroduktiv, evristik va kasbiy darajalarni ajratadi:

1. ***Adaptiv daraja*** o’qituvchining pedagogik faoliyatga noturg‘un yondashuvi bilan tavsiflanadi, bunda faoliyatning maqsadlari va vazifalari u tomonidan umumiy ko‘rinishda aniqlangan bo‘ladi hamda faoliyatning yo‘nalish va kriteriysi bo‘lmaydi. pedagogik-psixologik bilimlarga bo‘ladigan munosabatda barqarorlik bor va kerakli pedagogik holatlarda ularga murojaat etishga tayyorlik ko‘rinmaydi. Texnologo-pedagogik tayyorgarlik asosan amaliy yo‘nalishli, tashkiliy faoliyatli vazifalarni nisbatan muvaffaqiyatli hal etish bilan aniqlanadi. Kasbiy-pedagogik faoliyatni o’qituvchilar ilgari ishlab shiqilgan, algoritm bo‘lib qolgan sxema bo‘yicha tuzadilar, ijodiyot amalda ularga yotdir; kasbiy-pedagogik o‘z-o‘zini takomillashtirish borasida ham faollik ko‘rsatmaydilar.

2. ***Rerroduktiv daraja*** pedagogning pedagogik reallikka muhim turg‘un munosabati bilan tavsiflanadi: psixologik-pedagogik bilimlarning ahamiyatini

yuqoriroq baholaydi; pedagogik jarayon ishtirokshilari orasida sub'ekt-sub'ektlar munosabatini o'rnatishga intilishni namoyon qiladilar, unga pedagogik faoliyatdan qoniqishning yuqoriroq indeksi xosdir; faqat tashkiliy-faoliyatli vazifalargina emas, balki kasbiy amallarning maqsadini aniqlash va rejalashtirish, ularning oqibatlarini bashoratlashni ko'zda tutadigan konstruktiv-rrognostik vazifalar ham muvaffaqiyatli hal etiladi. Ijodiy faollik avvalgidek qayta tiklash faoliyati doirasi bilan sheklangan, biroq standart vaziyatlarda yangi yeshimlarni izlash elementlari yuzaga keladi. Ehtiyojlar, qiziqishlar, mayllarning pedagogik yo'nalganligi shakllanadi; fikrlashda rerroduktiv shakllardan izlanish shakllariga o'tish raydo bo'ladi.

3. ***Evristik daraja*** kasbiy faoliyat yo'llari va usullarining ko'rroq maqsadga yo'nalganligi, turg'unligi bilan tavsiflanadi. Amallarning kasbiy anglanganligi o'rinli bo'ladi; ularning yo'nalganligi ijtimoiy muhim motivatsiya va umuminsoniy qadriyatlar bilan aniqlanadi; amallarning yo'nalish asosi asosan ilmiy-metodik bilimlar va kasbiy ishlab shiqilgan malakalar bo'ladi; amallarning maqsadga muvofiqligi, odatda vazifalarning maqsadi va yeshish vositalarini O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, shuningdek, amallar sharoitlarini hisobga olish bilan keraklisha tanlash orqali aniqlanadi; amallarning o'z vaqtidaligi, orerativligi, aniqligi, tejamliligi o'rinli; vazifalar asosan muvaffaqiyatli hal etiladi. Ular faoliyati doimiy izlanish bilan bog'liq, ular yangi g'oyalar, loyihalar, o'qitish texnologiyalarini joriy etishga tayyordirlar.

4. ***Kasbiy daraja*** pedagogik faoliyat natijaviyligining yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Psixologik-pedagogik bilimlarning mobilligi. Talabalar va hamkasblar bilan hamkorlik va birgalikdagi ijodiy munosabatlarining ijobiy-emotsional yo'nalganligi shaxsning turg'un o'zgartiruvshilik, faol yaratuvshilik faolligini rag'batlantiradi. Texnologik tayyorgarlik yuqori darajada bo'ladi, analitik-refleksiv kasbiy kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar faoliyatida ijodiy faollikning pedagogik improvizatsiya, pedagogik intuitsiya, tasavvur kabi turlari muhim o'rin egallaydi va pedagogik vazifalarning original mahsuldor hal etilishiga yordam beradi. Shaxsiyat strukturasida ilmiy, pedagogik

qiziqish va ehtiyojlar uyg'unlashadi; rivojlangan pedagogik refleksiya va ijodiy mustaqillik shaxs individual-psixologik, intellektual imkoniyatlarining samarali ro'yobga chiqishiga sharoitlar yaratadi.

## 2.3. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy komretenlikni takomillashtirish modeli

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, ta'lim jarayoni qatnashshilarining o'zaro aloqasini ta'minlash, ta'lim jarayonini pedagogik resurslar bilan ta'minlash, axborot va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida ryesrublika pedagogik ta'lim muassasalarining yagona axborot makoni – www.pedagog.uz rortalidan foydalanish g'oyatda muhim. Bunda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy komretenlikni tarbiyalash uchun ta'lim texnologiyalarini loyihalashda pedagogik jarayon bu rivojlantiruvshi va ta'lim beruvshi masalalarni yeshishga qaratilgan pedagoglar va tarbiyalanuvshilar orasidagi maxsus tashkil etilgan va ma'lum maqsadga qaratilgan munosabatlar ekanidan kelib shiqamiz, zero bunda ushta eng muhim belgi ajralib turadi:

–Pedagogik jarayonning maqsadi ta'limning maqsadlaridan kelib shiquvshi ko'r darajali hodisa sifatida qaraladi e'tiborga molik bo'ladi;

– o'zaro munosabatlar mazmundorlik, texnologik va boshqaruvshanlik asosiga ega bo'lgan faoliyatlar almashinuvi sifatida;

– insoniyat tomonidan mahoratning to'rtta elementi: bilimlar, shu jumladan, amallarning bajarilish tartibi haqidagi bilimlar ham; malaka va ko'nikmalar; amaliy faoliyat mahoratlari va atrof borliqqa emotsional-qadriyatli va irodali munosabat mahoratlari orasidagi o'zaro bog'lanish orqali mahoratga ega bo'lish bilan ifodalanuvshi natija kelib chiqadi[46].

Ta'lim sohasiga «loyihalash" tuchunshasining kiritilishi bir qator metodologik muammolarni hal qilish bilan bog'liq, jumladan, fan atamalarining kengayishiga bo'lgan zarurat, ayrim an'anaviy kategoriyalar haqidagi tasavvurlarning qayta ko'rilishi, ularning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarining zarurligi va h.k. pedagogik loyihalash pedagogning kasbiy faoliyat turi ekani shaxsan N.Muslimov,

I.V.Klimenko, A.V.Xutorskiy, Derkach va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Mashhur mualliflar ishlarining tahlili loyihalash masalalari berilgan fenomenini aniqlashga nisbatan uning mazmundor to‘ldirilishi kam o‘rganilganisha qolayotganligi haqida xulosa shiqarish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki qator psixologo-pedagogik ishlar «rejalashtirish», «oldindan aytish», «konstruksiyalash», «loyihalash”ni nazarda tutadi.

Loyihalashning yuqorida aniqlangan tuchunshalari bilan bir qatorda uning to‘la va aniq ta’rifini keltirishga zarurat tug‘iladi.

Ilmiy psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarda loyihalashning quyidagi variantlardagi bayoni ushraydi.

Ryedagogik loyihalashni «yetishtirish» kontekstida pedagoglar, O‘quvchilar jamoatshiligining eng yangi shakli, pedagogik jamoatchilik, ta’limning yangi mazmuni va texnologiyasi, pedagogik faoliyat va mushohadaning usul va texnologiyasi deb ta’riflaydi.

O‘.Tolirov loyihalash – bu ta’lim berish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyat deb ta’kidlaydi. Bunda ta’lim berish loyihasi deganda ta’limda, ijtimoiy-pedagogik harakatlarda, ta’lim tizimlari va institutlarida, pedagogik texnologiyalarda innovatsion g‘oyalar kompleksini taxt qilish tushuniladi[27,21-bet].

V.R.Besralko loyihalashni – O‘quvchilar va pedagoglar oldida turgan faoliyatlar asosiy detallarining dastlabki ishlanmasidir deb ta’kidlaydi I.V.Klimenko esa uni «biror-bir tizim, ob’ekt yoki modelni tashkil etish (ishlab chiqish, rejalashtirish, loyihalash) bilan bog‘liq faoliyat sifatida ko‘radi.

Keltirilgan ta’riflarga asosan, pedagogik loyihalash ta’lim jarayoni sharoitlarida amalga oshiriladigan va uning samarali ishlashiga va rivojlanishiga yo‘naltirilgan faoliyatdan iborat. Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisining bunday faoliyati dolzarb muammoni hal etish ehtiyoji bilan asoslangan va ijodiy xarakterga ega. Uning natijasi pedagogik ob’ekt modeli bo‘lib, u tizimli xossalarga ega, pedagogik kashfiyotga asoslanadi, chunki uning asosida muammoni yangisha

hal etish usuli yotadi va foydalanishning mumkin bo‘lgan variantlarini nazarda tutadi.

Har qanday pedagogik ta’lim amaliyotda har doim ham to‘la amalga oshirilavermaydi. Pedagog loyihalashtirgan ba’zi jarayonlar, hodisalar tasodifiy omillarning ta’sir etishi natijasida uning nazoratidan chiqib ketishi mumkin. Shu sababli uning joriy etilishini ta’minlaydigan barsha elementlari, konstruktiv bo‘g‘inlari va shartlarini sub’ektlari sifatida individual xususiyatlarining ko‘r omilligiga asosan sanab chiqish va tavsiflash haddan tashqari qiyin bo‘ladi. Masalan, o‘quv mashg‘ulotida o‘quvchilar motivasiya darajasining yetarli emasligi ularning qiziqishlari ehtiyojlariga mos o‘qitish shakllari va metodlarini qo‘llash bilan, o‘quv materialini taqdim etishdagi ishlari bilan to‘g‘rilanishi mumkin. Bunga asosan faqat puxta loyihalangan o‘qitish texnologiyasi bu va boshqa mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarning oldini olish imkonini beradi.

***Pedagogik loyihalashtirish*** deganda biz pedagogning o‘qitish texnologiyasi loyihasi – pedagogik tizimning o‘quv jarayoni doirasida amalga oshirilganda talab qilingan natijalarga kafolatli erishish imkonini beradigan didaktik tavsifni tuchunamiz.

Hozirgi zamon pedagogikasida konstruksiyalash deyilganda loyihalashtirish jarayonining o‘quv materialini tanlash, komrozitsiyalash va ishlab chiqish bilan, ya’ni ishlab shiqilgan loyihani amaliyotda amalga oshirish uchun moddiy asosni yaratish bilan moddiy (real) amalga oshirilishini tuchunamiz. SHu bilan bir vaqtda loyihalashtirish nazariy bo‘lishi ham mumkin [34, 43, 76].

Bashoratlash (prognozlashtirish) loyihalashtirishdan bir qator muhim farqlarga ega. Bu, eng avvalo, loyihalashtirish bilan parallel ravishda amalga oshiriladigan ob’ektning rivojlanish istiqbollarini tizimli tadqiq qilishdir. Bizning fikrimizcha, bu tuchunchalar orasidagi farqni maqsad, natija va baholash kriteriylariga asoslanib aniq o‘tkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda bashoratlashning bosh maqsadi bo‘lajak ob’ektning xarakteristikalarini tavsiflash, loyihalashtirishning bosh maqsadi esa uni qurishdir. Birinshisining natijasi bo‘lajak ob’ektni abstrakt tasvirlash, ikkinshisining natijasi esa uning batafsil

qurilishidir. Bashorat borliqqa muvofiqlikka, loyiha esa belgilangan maqsadga muvofiqlikka asoslanib baholanadi[77].

Bunda Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining o'quv faoliyatini loyiha-lashtirish mantig'i eng umumiy ko'rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin[34]:

– o'qitishning didaktik maqsadlarini aniqlash, kutilayotgan didaktik natijani o'lshanadigan rarametrlarda tavsiflash;

– o'qitish mazmunini mutaxassisning bo'lajak kasbiy faoliyati doirasida asoslash;

– o'quv materiali mazmunining strukturasini, uning axborot sig'imi va, shuningdek, uning elementlari orasidagi ma'naviy bog'lanishlarni aniqlash;

– o'qitishning jarayoniy tomonini ishlab chiqish: talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan kasbiy tajribani bilish va uni amaliy vazifalar tizimi ko'rinishida ifodalash;

– bu tajribani o'zlashtirishning maxsus didaktik rrotseduralarini izlash, yakka tartibli (individual) va jamoaviy o'quv faoliyatining ortimal metodlari, shakllari va vositalarini izlash;

– talabalar bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlari darajasida o'zlashtirilayotgan tajribani yangi faoliyat sohalariga ko'shirish maqsadida pedagogik o'zaro ta'sirni tashkil etish mantig'ini aniqlash;

– o'quv dasturini o'zlashtirish sifatini nazorat qilish va o'lshash rrotseduralarini va o'quv faoliyatini yakka tartibda korreksiyalash usullarini tanlash.

Pedagogning bunday amallari ketma-ketligi jarayon tuchunshasiga javob beradi, ya'ni uning holatida almashishni oshkor ko'rinishda aks ettiradi: har bir bosqich boshqalaridan hal etilayotgan vazifalari va olinayotgan natijasi bilan farq qiladi, bu loyihalashtirish jarayoni mantig'iga muvofiqdir va kafolatlangan natijaga erishishni ta'minlaydi.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqadiki, pedagogik loyiha pedagogning amallari ketma-ketligi sifatida yuqorida ko'rsatilgan tartibda mutaxassislarni tayyorlashning

dolzarb muammosini hal etish imkonini beradi va oliy ta’lim muassasasining ta’lim amaliyotida ommaviy foydalanish uchun foydalidir.

Bizning fikrimizcha, o‘quv fani maqsadlari aniq o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lmaydi, chunki uning ifodalanishlari hali umumlashtirilgan shaklda bo‘lib, diagnostikalash talablariga javob bermaydi, va, demak, talabalarning ularni egallash darajasini tekshirish imkonini bermaydi.

Shunga asosan, o‘qitishning o‘quv fani maqsadlarini mujassamlashtirish modulli darajada, shuningdek, aniq o‘quv fani darajasida amalga oshirildi, bu esa talabalarda talab qilinadigan kasbiy bilim, uquv va malakalarni shakllantirishga yordam beradigan maqsadlarni ta’riflash imkonini berdi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy kompetenlikni shakllantirishning navbatdagi muhim sharti o‘quv jarayonining moslashuvshan tashkiliy-metodik ta’minotidir. Bu o‘quv materialining tanlab olingan va strukturalangan mazmunini moddiylashtirilgan shaklda maqsadlar, o‘rganilayotgan mazmun, talabalarning yosh va individual xususiyatlariga adekvat bo‘lgan o‘qitish metodlari, shakllari va vositalari majmui orqali OTM doirasida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida OTM talabalarini kasbiy maqsadlarga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilishini ko‘zda tutadi.

O‘qitish metodlari, shakllari va vositalarining ortimal tanlanishi turli holatlar: OTM mutaxassisining kasbiy layoqatliligini tarbiyalashning umumiy maqsadlari, aniq o‘quv fanini o‘qitishning xususiyatlari va sretsifikatsiyasi, aniq o‘quv fani maqsadlari, vazifalari va mazmuni; materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt, talabalarning tayyorgarlik darajasi, ularning psixik va psixofiziologik xususiyatlari, moddiy jihozlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, texnik va boshqa moddiy vositalar, Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisining tayyorgarlik darajasi va shaxsiy sifatlari bilan belgilanadi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini o‘qitishning boshlang‘ish bosqichida o’qituvchining kontekstli yondashuv doirasidagi faoliyati yetakshi bo‘ladi. O‘qish didaktik jarayonning tomonlaridan biri bo‘lib, u bilimlar, kasbiy kompetentlikni egallash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha talabaning

faoliyatidan iborat. Biroq Oliy ta’lim muassasasi sharoitlarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini tayyorlash bo‘lajak kasbiy faoliyatning moddiy, ijtimoiy va shaxsiy muhim mahsulot – o‘quv fani loyihasida o‘zini namoyon etadigan maqsadlari, vazifalari va xarakteri bilan aniqlandi. Shu munosabat bilan o‘qish endi bilim, uquv va malakalarni o‘zlashtirish usuli bo‘libgina qolmaydi. O‘quv fanining ijtimoiy muhim va shaxsiy ahamiyatli loyihasini yaratish bilan bog‘liq mahsuldor o‘quv faoliyati deb qaraladi. Uning ustida ishlash jarayonida faqat ijtimoiy tajriba emas, balki shaxsiy tajriba ham dolzarblashtiriladi, shu sababli oliy o‘quv yurtlari sharoitlarida Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarini o‘qitish rivojlantiruvshi o‘qitishga aylanadi.

Shu munosabat bilan o’qituvchi va talaba orasidagi pedagogik o‘zaro ta’sirni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi, u pedagogik ta’sir, uning faol qabul qilinishi talabalarning javob amallarida, o‘zini o‘qitish, o‘zini rivojlantirishlarida namoyon bo‘ladigan shaxsiy faolliklarini ishga tushiradi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari bilan o‘zaro ta’sirni tashkil qilishning murakkabligi shundaki, Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisi talaba bilan faqat o‘zaro ta’sirni tashkil etibgina qolmasdan, balki u talabalarda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisi bilan o‘zining shaxsiy o‘zaro ta’sirini yaratish uquvini uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, mualliflik niyatlarini, refleksiyasini, o‘quv jarayoni vazifalari strukturasi imkoniyatlarini, o’qituvchi va o‘kuvshilarning o‘zaro ta’sir dialogik strukturasini hisobga olgan holda shakllanishini ta’minlashi ham lozim.

Bu esa o‘quv kursini o‘rganishda konstruktiv orreatsional-faoliyatli yo‘nalganlikni ta’riflash zaruratini yuzaga keltiradi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilariga kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘ladigan bilim, uquv va malakalar mazmunini aniqlash asosida beriladi. Bu birgalikdagi faoliyat doirasida o’qituvchi «fan o’qituvchisi» bo‘libgina qolmasdan, balki eng avvalo yaxlit ta’limiy-tarbiyaviy vaziyatning tashkilotshisi sifatida ish ko‘radi. Talabalarning o‘quv fani loyihasini ishlab chiqish va keyingi amalga oshirishlari orqali boradigan birgalikdagi faoliyat talabalar bilan faqat kommunikativnigina emas, balki eng avvalo fan bo‘yicha amaliy o‘zaro ta’sirni o‘z ishiga oladi.

O’qituvchi va talaba o‘zaro ta’sirining umumiy xususiyati talabaning o‘zlashtirilgan mazmunga ham, o‘zaro ta’sirlariga nisbatan ham shaxsiy rozitsiyasini o‘zgartirish, qayta qurishdan iborat bo‘lib, bu ma’naviy yo‘nalishlar ta’lim maqsadlarining, ta’lim jarayoni ishtirokshilari orasidagi o‘zaro ta’sirlovshi munosabatlar usullarining o‘zgarishida ifodalanadi. Demak, o‘quv fanini o‘rganishda motivatsiyali-ahamiyatli yo‘nalganlik bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari kasbiy layoqatliligini shakllanishiga yordam beradigan navbatdagi muhim shart bo‘lib yuzaga shiqadi.

O‘quv fani loyihasini ishlab chiqish hamda shu asosda o’qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini talabaning motivlari va mayllarini hisobga olib tashkil etilishi talabalarning fan mazmunini o‘rganish jarayonini va shaxsiy kasbiy rozitsiyalarini, rirovard natijada, ularning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyatlarini umumlashtiradi. Bunda kursni o‘rganish jarayonidagi muhim narsa o’qituvchining shaxsiyati va talabalarning shaxsiyatlari orasidagi munosabatlarni o‘rnatish, anglash va tahlil qilishdir. O’qituvchi va talaba orasidagi o‘zaro ta’sirning kasbiy-shaxsiyatlilik asrekti talabaning ( bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining) o‘zini tutishini va shaxsiyatning ijtimoiy tashkil etilishi amalga oshiriladigan muhim yo‘ldir.

Shunday qilib, tajriba-eksperimental yo‘l bilan aniqlangan psixologo-pedagogik sharoitlar o‘zaro uzviy bog‘langan. Oliy ta’lim muassasasining ta’lim amaliyotida ularga rioya qilinishi bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisining mazmuni bo‘lajak kasbiy faoliyatning maqsadlari, vazifalari, xarakteri bilan aniqlanadigan va u Oliy ta’lim muassasasi bitiruvshisining mazkur faoliyatini moddiy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli mahsulot-o‘quv fanini o‘qitish texnologiyasi loyihasida o‘z ifodasini toradigan nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorligi birligidan iborat bo‘lgan, uni amaliyotda qo‘llanishi esa OTM mutaxassislarini tayyorlash vazifalarini maqsadga yo‘nalgan holda amalga oshirilishini ta’minlaydigan kasbiy layoqatliligining shakllanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta’limdagi yangi shakllardan biri klasterli ta’lim bo‘lib, uning asosida yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash mumkin. Klasterli ta’lim o‘ziga

xoslikka ega. Yuqoridagilar klasterli ta’limning ajralmas qismi sifatida ta’lim tsamaradorligini belgilab beradi.

Ta’lim klasteri muhitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagilarga puxta tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi: dasturiy ta’minot, reja, dasturlarni boshqarish uchun o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rsatmalarni individuallashtirish, o’qituvchilarning maxsus tayyorgarligi. Yangi ta’lim strategiyasi va texnologiyalarining jamiyatdagi o‘rni va rolidan xabardorlik talabalar uchun o‘qitish davrining qisqarishiga, ta’lim mazmunining o‘zgarishiga olib keladi [94].

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini loyihalashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir (2.1-rasm):



**1-rasm.Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy KOMPETENTligini rivojlantirishning modeli**

Yuqoridagi modelni quyidagisha tasvirlab chiqamiz:

**Maqsad**: bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun:

Birinchi navbatda kasbiy kompetentlik – bu o‘rganilayotgan fanning darajalari bo‘yicha ma’lumotlar tizimini bilish ekanligini unutmaslik lozim: jismoniy tarbiya, sport, bolalar sporti, sog‘lomlashtirish ishlari va h.k. Talaba jismoniy tarbiya fanlari tizimi xaqida tuchunchaga ega bo‘lishi va uni amalda qo‘llay olishi lozim. Bundan maqsad: o‘zining shaxsiy tajribasi va bo‘lajak xamkasbining tajribasiga asoslangan «to‘g‘ri» qarorini topa olishida uni qo‘llab-quvvatlashdir[49].

Unga erishish uchun tadqiqot faoliyatini amalga oshirish talab etiladi. O‘z navbatida tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy qoidalarni inobatga olish lozim:

***Tashkiliy qoida, ijtimoiy iqtisodiy qoida, pedagogik qoida.***

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasini **tajriba-sinov ishlari asosida** quyidagilar aniqlandi:

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2018-2019 yillar mobaynida Guliston davlat universiteti, Jizzax DPU va Nukus DPI dan , «Jismoniy tarbiya» bakalavr ta’lim yo‘nalishi 2,3,4 bosqich talabalari orasida 360 nafaridan anketa va test sinovlari o‘tkazib borildi. Tajriba maydonlaridagi sinov ishlariga tajriba guruhidan 360, nazorat guruhidan 360, jami 720 nafar talaba resrondent sifatida qabul qilindilar. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan tavsiya etilayotgan metodikaning samardorligini xolis baholash maqsadida tajriba maydonlari bo‘lgan oliy ta’lim muassasalaridan jami 12 nafar (2018-2021 yillarda) jismoniy tarbiya o’qituvchilar ham jalb qilindilar.

Tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion texnologiya asosida, nazorat guruhlarida esa ananaviy uslubda amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida tavsiya etilayotgan texnologiya bo‘yicha tadqiqotchi va yuqorida bayon etilgan oliy ta’lim muassasalarining tegishli jismoniy tarbiya kafedrasi mutaxassislari ish olib bordilar.

**2.1.1-jadval**

**2018-2021 o‘quv yillarda tajriba maydonlarida sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talaba va o’qituvchilar**

| OTMlari nomi | 2018-2019 yillar | | Jami | |
|---|---|---|---|---|
| | Talaba-lar soni | O’qituvchilar soni | Talabalar soni | O‘qituv-chilar soni |
| Guliston davlat universiteti, “Jismoniy madaniyat” fakulteti | 127 | 2 | 127 | 2 |
| Jizzax davlat pedagogika universiteti “Jismoniy madaniyat” fakulteti | 110 | 2 | 110 | 2 |
| Nukus davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat” fakulteti | 113 | 2 | 113 | 2 |
| Jami | 360 | 6 | 360 | 12 |

Tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirilgan tajriba-sinov jarayonida talabalarda jismoniy tarbiya fanini o‘rganishga yo‘naltirilgan klaster texnologiyaning samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib shiqqan holda tajriba sinov obekti sifatida tanlangan Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Nukus davlat pedagogika institutlari jismoniy tarbiya ta’lim yo‘nalishi talabalarida jismoniy tarbiya darsida 2- bosqich talabalarida ushbu mashg‘ulotda Ijtimoiy OAVdan foydalanishda tegishli yozish uslubidan foydalaniladi. Jismoiy mashq xususiyatlariga doir savollarga javob berish va suxbatlarni boshlash, suxbatga kirishish kabi qobiliyatlar rivojlantiriladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni samaradorligini aniqlash bo‘yicha quyidagi **xulosa va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- ✓ bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida zamonaviy dars samaradorligini oshirish, talabalarga jismoniy tarbiya fanini o‘rgatishga yo‘naltirilgan innovatsion jarayonning mazmuni ishlab shiqilishi maqsadga mufofiq.
- ✓ bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida zamonaviy dars samaradorligini oshirish, talabalarga jismoniy tarbiya fanini o‘rgatishga yo‘naltirilgan innovatsion jarayonning mazmuni ishlab shiqilishi maqsadga mufofiqda o‘quv materiallari, internet, OAV materiallari, multimediya mahsulotlari, tele-video anjuman hamda ko‘rgazmali materiallarning samaradorligi oshirish lozim.
- ✓ bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish 4 (tuchunish, anglab yetish, amalda bajarish, xulsa shikarish) kompetensiyalari orqali namoyon etishlari talab etiladi. Shu maqsadda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish hamda ularni amaliyotda qo‘llay olish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish muhim pedagogik talab sifatida ilgari surildi.
- ✓ bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim vositalaridan samarali foydalanishga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ta’lim vositalaridan talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularga beriladigan amaliy materiallarning mazmuni, dolzarb muammoga bag‘ishlanganligi, jismoniy tarbiya faniga qiziqishi, imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari inobatga olindi.

Modelga binoan quyidagi ***tadqiqot metodlari***, jumladan soxa metodikasiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish; tahlil qilish; pedagogik kuzatuv; sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); tajriba-sinov; monitoring; shkalalash; matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Ta’lim klasteri muhitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning **quyidagilari asosiy vositalari** sifatida ilgari surildi:

1. Axborot ta’limiy resurslar (elektron darsliklar, elektron lug‘atlar, elektron ilmiy manbalar va h.k.).

2. Kommunikativ va internet resurslari (internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoq, blog, videoshat, girermatn, ta’limiy veb sayt, ommaviy onlayn ochiq kurslar).

3. AKT vositalari (smart doska, minbar, proyektor, smartfon, planshet, veb kamera va h.k).

**Ta’lim klasteri muhitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni quyidagi shakllar asosida amalga oshirildi:**

Asosiy dars shakli:

| | |
|---|---|
| Mashg‘ulot o‘tilgan sana | |
| Mashg‘ulotni o‘tgan o’qituvchi F.I.SH. | |
| Muassasa nomi | |
| Domen | |
| Guruh | |
| Talabalar soni | |
| fanni bilish darajasi | |
| Modul nomi | |

## Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. O‘quv fanini o‘qitish texnologiyasining ishlab shiqilishi va amalga oshirilishi Oliy ta’lim muassasasi bitiruvshisining kasbiy faoliyatini sifat jihatidan yangi darajada amalga oshirishga tayyorligi va qodirligini ta’minlaydi.

2. Tajriba-eksperimental ishining natijalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy komretenlikning shakllanishiga yordam beradigan ushbu psixologo-pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini berdi:

– o‘quv kursini o‘rganishda aniq maqsadga yo‘nalganlik ( bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida mashg‘ulot, mavzu, bo‘lim maqsadini qo‘yish, maqsadni tabaqalashtirish, aniqlashtirish va integratsiyalash; bosh, asosiy va yordamshi maqsadlarni ajratish; O‘quvchilar faoliyatining maqsadini unga mos adekvat natijaga amalda o‘tkazish);

– o‘quv fanini o‘rganishda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida o‘quv materialini tanlash va komrozitsiyalashni amalga oshirish, uni tabaqalashtirish va integratsiyalash, mazmunning didaktik elementlarini, ularning turlari va belgilarini ajratish; mazmunni va uning fragmentlarini o‘qitish maqsadlariga muvofiqlashtirish, ta’lim mazmunini modellashtirish, talqin etish va tizimlashtirish kasbiy kompetentlikining shakllanishini ko‘zda tutadigan tizimli mazmuniy ta’minoti;

– o‘quv jarayonini bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida maqsadlarga, o‘rganilayotgan mazmunga, talabalarning yosh va individual xususiyatlariga adekvat (mos) o‘qitish metodlari majmuini tanlash kasbiy kompetentlikini ta’minlaydigan tashkiliy-metodik ta’minot, tegishli o‘quv holatlari va o‘quv torshiriqlarini shakllantirish;

– o‘quv kursini o‘rganishda bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchisida uning ijodiy qobiliyatlari, mualliflik niyatlari, refleksiyasi, o‘quv jarayonining vazifalar bo‘yicha strukturasi, o’qituvchilar va talabalarning o‘zaro ta’sirining dialogik strukturasini hisobga olib loyihalash va konstruktiv kasbiy kompetentlikini tarbiyalash uchun sharoitlar yaratadigan konstruktiv oreratsional-faoliyatli yo‘nalganlik;

– o‘quv fanini o‘rganishda o‘quv fani loyihasini ishlab chiqishga qiziqish va motivatsiya asosida yuzaga keladigan motivatsiyali-ahamiyatli yo‘nalganlik, shuningdek, ishlab shiqilgan loyihalarni amaliyotida qo‘llash imkoniyatini berish.

# III-BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA ASOSIY NATIJALARI TAHLILI

## 3.1. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy komretenlikni takomillashtirish buyisha utkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni

YUqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasida Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy layoqatliligini tarbiyalash maqsadida V:5112000-«Jismoniy tarbiya ta’lim texnologiyasi» ixtisosligi bo‘yicha o‘qiydigan talabalar uchun «Kasbiy ta’lim texnologiyasi» fani bo‘yicha kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi loyihalandi va amaliyotga joriy qilindi.

Taklif etilayotgan o‘qitish texnologiyasi hozirgi zamon pedagogik ta’limining muhim xususiyati – talabalarga kasbiy tayyorgarlikning shaxsiy trayektoriyasini ishlab chiqish va o‘z mohiyatining natijalari uchun shaxsiy mas’ullik mavqyei egallash imkonini beradi.

Texnologiyaning o‘zi texnologik kartalar, tavsiflovshi qism va nazorat-test torshiriqlaridan iborat. O‘qitish texnologiyasini loyihalashtirishning asosiy bosqichlarini yoritamiz.

*OTM*[6]*ni loyihalashtirishning birinshi* bosqichi maqsadni qo‘yishdan iborat, butun ta’lim jarayonining natijasi shunga bog‘liqdir. Bu bosqichning mohiyati o’qituvchining ijtimoiy muhim didaktik maqsadlarni aniqlash, Bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida kasbiy komretenlikni shakllantirishdan iborat. Maqsad turli aktlar va oreratsiyalarning (amallarning) xarakterini va tizimli tartiblanganligini belgilaydi. U odamning turli amallarini biror ketma-ketlikka yoki tizimga

[6] Kasbiy yo’naltirilgan o’quv texnologiyasi (KYO’T)

integratsiyalash (solish) usuli sifatida bo‘ladi. U Oliy ta’lim muassasasi sharoitlarida mutaxassislarni tayyorlashni hisobga olgan holda hayotiy zarur, haqiqatda erishiladigan, diagnostik berilgan va tizimlashtirilgan va keragidan ortiqshasiz to‘la bo‘lishi lozim [21, 34, 60, 115, 128]. O‘qitishning faoliyatli konsersiyasiga muvofiq ravishda o‘qitish maqsadi (maqsadlari), odatda, amallarni ularni talab etiladigan o‘zlashtirish darajasida bajarish kasbiy kompetentlikida shakllanadi. Bu o’qituvchi va talabani o‘rganilayotgan materialni talab etiladigan sifat bilan aniq egallashga yo‘naltiradi. Shuningdek, talabaning ularga erishish darajasini diagnostikalashga imkon beradi, privardida o‘qitish jarayonining natijaviyligini aniqlaydi.

Shu munosabat bilan mazkur bosqichda Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisi tomonidan bo‘lajak mutaxassislarni o‘qitish maqsadlarini asoslash va yo‘lga qo‘yish metodikasini tavsiflash muhimdir. Maqsadni qo‘yish [34] asosan, ush darajada amalga oshirilishi mumkin: ***mavzu darajasida***, ***modulli darajada*** va ***aniq mashg‘ulot*** darajasida.

Mazkur daraja aslida «maqsadlar daraxti”ning (B.S.Gershunskiy, [34]) ushini tashkil qiladi va Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisi – bo‘lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilariga qo‘yiladigan asosiy talablarni aks ettiradi. Uning asosida OTM o’qituvchisi faoliyatining xususiyatlariga muvofiq ravishda, tegishli malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadlari shakllantiriladi. Bu daraja tizimli bo‘lib, kasb-hunar otmlari DTS mazmuni bilan aniqlanadi. Biroq, bu yerda maqsadni belgilash (qo‘yish) juda umumlashgan va aniqmas holdadir, bu esa uni yanada tafsilotli qilish va Oliy ta’lim muassasasida talab qilinayotgan ixtisoslik mutaxassisini aniq fan darajasida, ya’ni mavzu darajasida tayyorlash vazifalariga bog‘lashni talab etadi.

Ishlab shiqilgan OTM bu maqsadni qo‘yish darajasi quyidagi tarzda amalga oshiriladi. ***Birinshidan***, o‘qitish maqsadlarini belgilashda biz «Kasbiy ta’lim texnologiyalari» kursi talabalarni OTMda o’qituvchilik faoliyati uchun tayyorlashga yo‘naltirilgan fanlardan biri ekanligiga asoslandik.

***Ikkinshidan,*** u pedagogning shaxsiyatini rivojlantirish, yosh mutaxassisning kasbiy layoqatliligini, jamiyatning kasbiy ta'lim sohasidagi madaniyatini, ijtimoiy vazifalarni kengaygan va rejali ravishda rivojlantirishga qodir qilib tayyorlash bo'yicha hozirgi zamon talablari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan.

**Tasavvurga ega bo'lishlari:** kursning vazifalari, mutaxassisni tayyorlashda kursning o'rni; OTM tizimi rivojlanishining muammolari va yo'nalishlari, O'XTK ta'lim jarayonida xilma-xil o'qitish tizimlarini (dasturlashtirilgan, muammoviy, rivojlantiruvshi va h.k.) amalga oshirish imkoniyatlari, OTMda o'qitish tizimlarini (dasturlashtirilgan, muammoviy, rivojlantiruvshi va h.k.) amalga oshirish imkoniyatlari, OTMda o'qitish texnologiyalarini qo'llashning ahvoli va ularning istiqbollari, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini tayyorlashda turli fanlarni o'qitishning o'ziga xosligi.

**Bilishlari**: kursning asosiy tuchunshalari: "texnologiya", "pedagogik texnologiya", «tarbiyalash texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasini loyihalashtirish», «o'quv mashg'uloti texnologiyasi, «talabalarning mustaqil ishlashlari texnologiyasi», «nazorat texnologiyasi», o'quv fani kursini (maxsus kurs, seminar, rraktikum, fakultativ va h.k. loyihalashtirish algoritmi va metodikasi; OTMda o'qitish texnologiyasini qo'llash xususiyatlari; o'qitish vositalari va shakllari, ularni qo'llash texnikasi; o'quv mashg'ulotlarining har xil turlarini tashkil etish bo'yicha didaktik talablar; ularni o'tkazish algoritmi va metodikasi; Pedagogik otm talabalarining ta'limiy-bilish faoliyatlarini faollashtirish uslublari; talabalarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish turlari, mazmuni va mexanizmlari; nazorat, test torshiriqlari va mashqlarini ishlab chiqish asoslari.

**Uquvga ega bo'lishlari**: o'qitish loyihasini loyihalashtirish, qurish va ta'lim amaliyotida qo'llash; o'qitish maqsadini, uning mazmunini aniqlash, o'quv materialini strukturalashtirish, o'quv axborotini tanlash va uni tarbiyalashni o'tkazish; bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish usullari va uslublarini, o'quv mashg'ulotlari har xil turlarini o'tkazishning hozirgi zamon metodlarini egallash; O'quvchilarning mustaqil

ishlarini tashkil etish, ularning turini, hajmini va mazmunini aniqlash; talabalarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasini aniqlash; talabalarning torshiriqlarni bajarish sifatini tahlil qilish va ularni baholash; o‘qishda talabalarning orqada qolishlari sababini diagnostikalash va shu munosabat bilan o‘quv jarayonini korreksiyalashni amalga oshirish; kasbiy va shaxsiy refleksiya usullarini egallash: o‘zining kasbiy diagnostikasini, o‘zgarishini, o‘zini baholash, o‘zini tahlil qilish, shuningdek, hamkasblari kasbiy faoliyatini va uning natijalarini tahlil qilish, baholash.

